

BOLTAYEVA I.T.

O'ZBEK TILI DARSLARIDA YORDAMCHI

SO'ZLARNING O'QITILISHI

USLUBIY QO'LLANMA

CHIRCHIQ - 2021 YIL

I.T.Boltayeva

Uslubiy qo‘llanmada talabalarning yordamchi so‘zlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi, vazifadosh ko‘makchilar, vazifadosh bog‘lovchilar, vazifadosh yuklamalar yuzasidan olgan bilimlarini kengaytirish va ulardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan.

Qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari hamda ta’lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta’lim muassasalarida “O‘zbek tili” fanini o‘qitishda, akademik litsey o‘qituvchilarining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining “Morfologiya” bo‘limi bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda amaliy qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Mas’ul muharrir:

N.N.G‘afforov, f.f.n., dotsent

Taqrizchilar:

Iskandarova O.R.f.f.n., dotsent

F.R.Norboyeva, p.f.n.

Ushbu uslubiy qo‘llanma O‘zDJTSU Uslubiy kengashining 2021 yil ---sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan --

SO'Z BOSHI

Ta`limning uzviyligi va uzluksizligi amalda bo'lgan bugungi kunda barcha sohalarni yangi sifat bosqichiga o'tishi zaruratga aylanmoqda. Xususan, "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq "2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiya" sining tasdiqlanishi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish; ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish"¹ ga qaratilganligi soha mutaxassislari uchun kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni qo'ydi.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish ijtimoiy fanlar ichida muhim o'rin tutadi. Boshqa millat vakillarining davlat tili hisoblangan o'zbek tilini puxta egallashlari, milliy, madaniy qadriyatlarni o'rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etiladi. O'zbekistonda yashab, o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lib, barcha sohalarda erkin fikr almashish hamda mutaxassisliklari doirasida davlat tilida ish yuritish uchun o'zbek tilini yetarli darajada egallashlari ko'zda tutiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonidan..2020 yil, 21 oktabr.

Ma'lumki, 5210200 – Psixologiya (Sport), 5230200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish), 5230200 – Menejment (Jismoniy tarbiya va sport menejmenti), 5112300 – Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'limi, 5230400 – Marketing (Sport), 5610500 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), 5610500 – Sport faoliyati (adaptiv jismoniy tarbiya va sportyo'nalishlarida "O'zbek tili" fanidan amaliy mashg'ulotlar rejalashtirilgan. Amaliy mashg'ulotlarda o'qitishning eng ilg'or pedagogik texnologiyalaridan, xususan, ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlardan foydalangan holda talabalarning "O'zbek tili" fanidan mashg'ulotlarda egallangan bilimlarini nazorat qilish, uni mustahkamlash ko'zda tutiladi.

"O'zbek tili" fanidan rejalashtiriladigan amaliy mashg'ulotlar talabalarning amaliy bilimlarini nazorat qilish vositasi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda ularning bilim doirasini kengaytirish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish, fikrni mustaqil bayon eta olish malakasini shakllantirish omili hamdir.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqichida o'zbek tili o'quv fani bo'yicha shu bosqich uchun belgilangan nutqiy ko'nikmaga, leksik-grammatik bilimlarga ega bo'lishlari, mustaqil ravishda o'zbek tilida fikr yurita olish uchun til materiali va vositalaridan bakalavriat bosqichi hajmida va ungacha bo'lgan davrda o'rganilgan materiallar hajmida to'g'ri va mustaqil foydalana bilishlariga erishishlari lozim.

"O'zbek tili" fanini o'qitish konsepsiyasi shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: gapirish, nutqni tinglab tushunish, o'qish va yozish amallari bo'yicha taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini belgilab beradi. Bunda o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish, ixtisoslik leksikasini o'zlashtirish, o'z kasbi doirasida davlat tilida ish

yurita olish tarzida nutqiy aloqaga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

"O'zbek tili" fanining Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilanadi. Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, ixtisoslikka oid terminologiya va leksikani grammatik jihatdan to'g'ri shakllantira bilish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan to'g'ri hamda o'rinli foydalana olish, o'zbek tilining ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslubini puxta egallash talab etiladi

"O'zbek tili darslarida yordamchi so'zlarning o'qitilishi " deb nomlangan ushbu uslubiy qo'llanmada "O'zbek tili" fanidan o'qitilayotgan "Internet hayotimizda". Mavzuga doir bahs-munozara uyushtirish. Yordamchi so'zlar“ mavzusini amaliy mashg'ulotlarda o'tish maqsad qilib olingan bo'lib, unda grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalardan yordamchi so'zlarning o'ziga xos xususiyati, ularning tasnifi; vazifadosh ko'makchilar, vazifadosh bog'lovchilar, vazifadosh yuklamalar yuzasidan olgan bilimlarini kengaytirish va ulardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanmada o'zbek tilshunosligida shu kunga qadar erishilgan ilmiy natijalar hamda eng so'nggi nazariy xulosalar e'tiborga olindi.

"O'zbek tili darslarida yordamchi so'zlarning o'qitilishi " nomli uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari hamda ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida O'zbek tilidan "Yordamchi so'zlar" mavzusini o'qitishda, akademik litsey o'qituvchilarining "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining "Morfologiya" bo'limi bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarda amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi.

YORDAMCHI SO'ZLARNING O'QITILISHI

(ОБУЧЕНИЕ СЛУЖЕБНЫХ ЧАСТЕЙ РЕЧИ)

So'zlar ma`lum so'roqqa javob bo'lishi yoki bo'lmasligi, atash ma`nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga, gapda ma`lum gap bo'lagi vazifasida kelish-kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'zlarga bo'linadi.

Atash ma`noli so'zlar yoki ular o'rnida qo'llanilib, ma`lum so'roqlarga javob bo'luvchi va gapda ma`lum gap bo'lagi vazifasida keluvchi so'zlar mustaqil so'zlar, leksik ma`nosini yo'qotib, grammatik ma`no ifodalashga o'tgan, ma`lum so'roqqa javob bo'lmaydigan so'zlar borki, bunday so'zlar yordamchi so'zlar deb yuritiladi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma`nolariga qo'shimcha ma`no yuklash vazifalarini bajaradi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar kiradi.

Yordamchi so'zni mustaqil so'zga quyidagilar yaqinlashtiradi ²:

(Следующее приближает вспомогательное слово к самостоятельному слову)

a) shaklan alohida ajralib turish;(разделение форм)

b) lug'aviy ma`noning mavjudligi (ot - ko'makchi, fe`l - ko'makchida);

(наличие лексического значения (существительное - вспомогательное, глагол - вспомогательное)

d) ko'pincha ularning mustaqil so'zlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi (часто их подход к самостоятельным словам, их происхождение).

²Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent:"Fan va texnologiya. 2009. –B. 266.

YORDAMCHI SO‘ZLAR: BOG‘LOVCHILAR, KO‘MAKCHILAR, YUKLAMALAR

(Служебные слова: союзы, послелогои, частицы)

▼ **Запомните! Eslab qoling!**

Служебным слова служат для грамматической связи самостоятельных частей речи. К ним относятся: **союзы** (bog‘lovchi), **послелогои** (ko‘makchi), частицы (yuklama).

Союзы – это служебные слова, которые связывают однородные члены предложения или части сложного предложения. Они делятся на сочинительные (teng) и подчинительные (trgashtiruvchi). К ним относятся: **va, hamda** (и), **ammo, lekin, biroq** (но, однако), **yo, yoki** (или), **goh** (то), **ham** (и); **chunki** (потому-что), **shuning uchun** (поэтому) и т.д. **Например: Talaba darsga kitobva daftarlarini olib keldi. U ko‘p o‘qiydi, shuning uchun ko‘p narsani biladi.**

Сочинительные союзы связывают равные грамматические компоненты: однородные члены предложения, а также часто сложносочиненных предложений. Они делятся на три группы:

- 1) **biriktiruvchi bog‘lovchilar**- сочинительные союзы: **va, ham, hamda** (и.тоже).
- 2) **Zidlov bolovchilari** –противительные союзы: **ammo, lekin, biroq** (но,однако).
- 3) **Ayiruv bog‘lovchilari** – разделительные союзы: **yo, yoki, yohud** (или); **goh, dam, ba‘zan** (то). Они часто употребляются повторно.

Подчинительные союзы служат как для связи членов предложения, так и для связи частей сложноподчиненного предложения. К ним относятся: **-ki, chunki, negaki, go‘yo, agar, shuning uchun, toki** (потому что, чтобы, так как).

▼ **Запомните! Eslab qoling!**

Послелогои – служебные слова, связывающие имена существительные и слова, употребляемые вместо них с другими частями речи, особенно с глаголам. Они выражают условные, причинные, временные пространственные, направительные и другие отношения между именами или между субъектом и предикатом.

Послелогои в узбекском языке делятся на:

1. **Asl ko'makchilar** (собственно послелогои): **bilan** (с), **uchun** (для), **kabi** (как), **singari** (как), **go'yo** (будто) и др.
2. **Ot ko'makchilar** (отыменные послелогои): **tomon** (в сторону), **ilgari** (прежде), **yonida** (рядом), **ichida** (внутрибреди) и т.д.
3. **Fe'l ko'makchilar** (отглогольные послелогои): **ko'ra** (по сравнению), **yarasha** (по), **boshlab** (с,налиная), **qaraganda** (по отношению).

Послелогои в узбекском языке ставятся после слова, к которому относятся. **Например: qalam bilan, kutubxona uchun, boks bo'yicha.**

Послелогои разделяют на группы исходя из того,со словами в каком падеже они употребляются.

▼ **Запомните! Eslab qoling!**

В узбекском языке активно применяются следующие послелогои: **uchun** (для, за, ради), **orqali** (по, через), **bo'yicha** (по), **beri** (с, от), **singari** (как), **haqida** (о, об, про), **tomon** (к, всторону), **oldin** (перед, до), **keyin** (после, за), **ustida** (на), **ichida**(в, внутри), **orqasida** (за), **yonida** (около, у), **oldida** (у, перед), **tagida**(под), **orasida** (между, среди), **tepasida** (над) и т.д.

Послелогои очень часто заменяются падежными окончаниями.

▼ **Запомните! Eslab qoling!**


Yuklama (частица) – служебные слова, придающие предложению или отдельным словам различные дополнительные значения.

Частицы делятся на две группы:

1. Yuklamalar -so‘z (слова-частицы): hatto (даже), faqat (только), xolos (всего, только), ham (тоже), nahot (ki) (неужели), xuddi (точно);

2. Yuklama-qo‘shimcha (частицы-аффиксы): -mi, -chi, a (ya), -ki, -da, -oq (yoq)

Частицы придают слову или предложению значение утвердительное, отрицательное, ограничительное и т.д.



Topshiriqlar

1. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. O‘zbek tilini o‘rganish to‘garagiga boryapman, chunki o‘zbek tilini yaxshi bilishim kerak. 2. Andrey birinchi o‘rinni oldi, chunki u musobaqaga yaxshi tayyorlangan edi. 3. Darsga hamma keldi, lekin Nigora kelmadi. 4. O‘lkamizga qish keldi, ammo hali qor yog‘madi. 5. Talaba darsga keldi, ammo javob bermadi. 6. Golf Angliya, AQSH va Kanadada keng tarqalgan. 7. Sobir

akvarel bo'yoqlar bilan ajoyib surat chizdi . 8. Telefon orqali oyim bilan gaplashdim. 9. Bu kitoblarni kutubxonam uchun oldim. 10. Konsertni radio orqali eshitdik. 11. O'qituvchi talaba bilan suhbatlashdi. 12. Dilshod matni o'qidi, lekin yozmadi.13. Biz darsda goh yozamiz, goh eshitamiz. 14. Havobulut bo'ldi, ammo yomg'ir yog'madi. 15. Biz ham vatanimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shamiz. 16. Karim sport turlaridan faqat boksgagina qiziqadi.

2. Birinchi topshiriqda berilgan gaplarda qo'llangan yo'rdamchi so'zlarni ajratib quyidagi jadvalni to'ldiring.

	BOG'LOVCHI	KO'MAKCHI	YUKLAMA
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			

3. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Они участвуют на соревнованиях по волейболу. 2. После уроков девушки пришли на стадион. 3. Я на беговой дорожке выполняю упражнения. 4. Борцы выполняют разные приемы на ковре. 5. Мальчик стоит около футбольных ворот. 6. Я каждый день занимаюсь утренней гимнастикой.

4. Nuqtalar o'rniga mos ko'makchilarni yozib chiqing:

1. Soat stol ... turibdi. 2. Shkafning ... har xil kitoblar bor. 3. Divanning ... ruchkamni oldim. 4. Uyning ... gullar ekilgan. 5. Sumkamning ... kalitni soldim. 6. Stul stolning ... turibdi. 7. Uyimiz ... maktab va bog'cha bor. 8. Muzlatkichning ... muzdek sharbat bor ekan. 9. Kiyimlaringizni shifonyer ... osing. 10. Gullarni guldonga solib, stol ... qo'ydim. 11. Sandiq ... bir go'zal qiz chiqib kelibdi. (Ertakdan). 12. Shaxtyorlar va metro quruvchilari yer ...

ishlaydilar. 13. Daraxtlar ... kichkina ariqcha oqib o'tadi. 14. Baxtiyor tom ... chiqdi va televizor antenasini o'zi tuzatdi.

5. Quyida berilgan so'zlardan gaplar tuzing, rus tiliga tarjima qiling.

Burun, ilgari, keyin, orqasida, ustidagi, yonidan, oldida, o'rtasiga, yuqorida, pastga.

6. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

INTERNET HAYOTIMIZDA

Internet bugun bizning hayotimizda keng o'rin egalladi. Hozir yoshlar ham, keksalar ham, o'quvchilaru uy bekalari, ziyolilaru ishchilar o'zlariga zarur bo'lgan ma'lumotlarni internet tarmog'idan topadilar. Bu tarmoqdan foydalanish juda qulay, chunki unda vaqt va mavzu chegeralanmagan - har bir kishi bilimi, sohasi hamda dunyoqarashiga mos zarur ma'lumotlarni topishi shubhasiz.

Axborot-kommunikatsion vositalar o'rta va oily ta'lim muassasalarida keng qo'llanadi. Bunda o'qituvchining eng yaqin yordamchisi multimedidir.

Multimedia - ma'lum bir mavzuda elektron programmalardan foydalanib yaratilgan tasviriy ma'lumotlar majmuasi. U qo'llanganda talaba ma'lumotlarni ham ko'radi, ham eshitadi, ham miyasi faol ishlaydi. Chunki ma'lumotlar oddiydan murakkabga, kam miqdordan ko'pga, oddiy yozuvdan tasviriy ma'lumotlarga, harakatsiz shakllardan harakatli shakllarga qarab o'sib boradi. Yozuvli ma'lumotlar rasm, jadval, sxemalardan tashqari videotasvirlar, filmlar bilan boyitilgan bo'ladi. Hatto mavzu bo'yicha tayyorgarligi bo'lmagan talabada aniq bilim va ko'nikmalar paydo bo'ladi, unutilgan bilimlar tiklanadi. Ma'lumotlar xotirada uzoq muddatga saqlanib qoladi.

Demak, multimedialar tasavvur va idrok asosida bilimlarni boyitish va mustahkamlash usulidir deb xulosa qilish mumkin.

Lug'at

dunyoqarash	– мировоззрение
shubha	– сомнение
tasvir	– изображение
majmua	– комплекс

ko'nikma – НАВЫК

idrok –


7. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Sobir akvarel bo'yoqlar bilan ajoyib surat chizdi . 2. Ko'prik orqali narigi qirg'oqqa o'tib oldim. 3. Bu kitoblarni sinf kutubxonasi uchun oldim. 4. Militsiya xodimlari ratsiya orqali gaplashdilar. 5. Nazokatning oyisi o'qituvchi bo'lib ishlaydi.

8. Krossvordni yeching.

Bo'yiga: 1. Amir Temur bu sport turining ustasi bo'lgan.

Eniga: 2. Yengil atletika ko'pkurashlaridan biri. 3. Qishki sport turi. 4. Millionlar o'yini. 5. Suv sporti turi. 6. Musobaqada sportchi erishgan ko'rsatkich.



9. Savollarga javob bering.

1. Kecha kechki ovqatdan keyin nima qildingiz? 2. Darslaringiz bugun tushdan oldin tugaydimi yoki keyinmi? 3. 2- avtobus litsey oldida to'xtaydimi? 4. Mashina ichida kimlar o'tiribdi? 5. Ko'kaldosh madrasasi oldiga qanday borish mumkin? 6. O'rtoqlaringiz bilan telefon orqali gaplashdingizmi? 7. Horijiy tillar bilan necha yildan beri shug'ullanasiz? 8. Siz bozor yonida

yashaysizmi? 9. Oyingiz uchun qanday sovg'a tayyorlab qo'yingiz? 9. Qutining ichida nimalar bor?

10. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

BU – QIZIQ

Qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Demosfen, Platon, Sokrat, buyuk Rim hukmdori Gay Yuliy Sezar qo'shpoya va yakkacho'pda turli mashqlarni ustalik bilan bajarganlar. Platon chiroyli va sog'lom bo'lish uchun butun umr gimnastika bilan shug'ullanish kerakligini aytgan.

Pifagor – mashhur yunon matematigi, hammamiz yaxshi biladigan teoremaning muallifi. Yana u kuchli bokschi ham bo'lgan. Pifagor qadimgi olimpiada o'yinlarida qatnashgan va ko'pincha jangni chiroyli nokaut bilan tugatgan.

Fransuz yozuvchisi Gyugo 40 yoshida og'ir yurak kasalligiga uchragan. Shunda u yayov va otda yurish, eshkak eshish bilan shug'ullangan, natijada 83 yil yashagan.



Lug'at

faylasuf	– философ
hukmdor	– правитель
muallif	– автор
eshkak eshish	– гребля

10. Rasmlar asosida ko'makchilarni qatnashtirib gaplar tuzing.



11. Matnlarga mos ko'makchilarni tanlang.



12. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Герои произведений А.Навои – Фархад, Искандар, Бахрам – физически сильные, выносливые, ловкие люди.
2. З.М. Бабур обладал большой силой и выносливостью. Он с детства занимался фехтованием, верховой ездой, стрельбой из лука.
3. А.С. Пушкин с детства любил физические упражнения. Он каждый день утром принимал холодную ванну.
4. Л.Н. Толстой занимался гимнастикой, очень любил теннис.

13. “SINKVEYN” texnologiyasi

“SINKVEYN” texnologiyasi haqida tushuncha

“SINKVEYN” — fransuz tilida “5 qator” ma’nosini bildiradi. Sinkveyn-ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo’lib, unda o’rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to’g’risidagi axborot yig’ilgan holda, o’quvchi so’zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:


Sinkveyn tuzish- murakkab g’oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so’zlar bilan ifodalash uchun muhim bo’lgan malakadir.

Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Unda bir tushuncha haqida axborot beriladi.

Birinchi qatorda mavzu (kalit so’z) beriladi(odatda ot tanlanadi),ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi(2 ta sifat yoziladi). Uchinchi qatorda unga harakat-holat (3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi)) bilan to’ldiriladi. To’rtinchi qatorda so’z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi.(4 ta so’zdan iborat jumla yoziladi). Beshinchi qatorda kalit so’zning ma’nodoshi ((mavzuga sinonim so’z yoziladi) keltiriladi.


Topshiriq: *Quyidagi berilgan ko’makchilarga “Sinkveyn” metodi yordamida ta’rif bering.*

Namuna: Kalit so’z: **sababli**




Yuqoridagi namunadan foydalanib, bo'sh kataklarni to'ldiring.

Kalit so'z: haqida



Kalit so'z: qarab



NAZORAT SAVOLLARI

1. Yordamchi so'zlar guruhiga qanday so'zlar kiradi?
2. Bog'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar? O'zbek tilidagi bog'lovchilarga misollar keltiring.
3. Ko'makchilarning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar? O'zbek tilidagi ko'makchilarga misollar keltiring.
4. Ko'makchilarni kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkinmi? Misollar keltiring.
5. Qadimgi yunon faylasuflaridan kimlar sport musobaqalarida qatnashganlar?
6. Platon chiroyli va sog'lom bo'lish uchun qanday sport bilan shug'ullanish kerakligini aytgan?
7. Pifagor kim? Pifagor qadimgi olimpiada o'yinlarida ko'pincha jangni qanday tugatgan?
8. Buyuk Rim hukmdori Yuliy Sezar qanday snaryadlarda ustalik bilan mashq bajargan?
9. Gyugo kim? U qachon og'ir yurak kasalligiga uchragan?
10. Gyugo qanday sport turlari bilan shug'ullangan?

TESTLAR

1. Gap to'g'ri tarjima qilingan qatorni toping. Sherzod tun bo'yi kitob o'qidi.

- A. Шерзод ночами читает книгу.
- B. Шерзод каждую ночь читает книгу.
- C. Шерзод всю ночь читал книгу.
- D. Шерзод ночью читал книгу.

2. Xalqlar orasida do'stlik yanada kuchaymoqda.

Gapdagi orasida so'zi rus tiliga qanday tarjima qilinadi?

- A. между
- B. в течение
- C. перед
- D. посередине

3. Chunki so'zini qo'yish mumkin bo'lgan qatorni toping.

- A. Osmonni quyuuq bulut qopladi, ... yomg'ir yog'madi.
- B. Ichkaridan ovoz eshitilar, ... so'zlari tushunarsiz edi.
- C. Ko'chatlarni yaxshi parvarish qildik, ... ular tez o'sa boshladi.
- D. Sportni sevaman, ... u odamni sog'lom qiladi.

4. Ko'makchilar berilgan qatorni toping.

- A. va, ammo, chunki
- C. shuning uchun, goh
- B. lekin, ba'zan, yoki
- D. bilan, uchun, haqida

5. Yordamchi so'zlar qatnashgan qatorni toping.

- A. Biz albatta g'olib chiqamiz.
- B. Mashhur sportchi to'g'risida ma'ruza yozdim.
- C. Oh-oh, qanday shirin qovun!
- D. Biz tabiatni sevamiz.

6. Nuqtalar o'rniga qaysi so'zni qo'yish kerak?

Siz ... institut gazetasiga maqola yozdim.

- A. to'g'rida
- B. to'g'risida
- C. to'g'rimizda
- D. to'g'ringizda

7. Bog'lovchi qatnashgan gapni toping.

- A. Musobaqalar Navoiy shahrida o'tadi.
- B. Samolyot shahar ustidan uchib o'tdi.
- C. Hamma gap mehnatda, tajribada.
- D. Quyosh botdi, lekin hali yorug' edi.

8. Qaysi yunon matematigi boks bo'yicha qadimgi Olimpiada o'yinlari g'olibi bo'lgan?

- A. Platon
- B. Aristotel
- C. Pifagor
- D. Evklid

9. Bog'lovchi qatnashgan gapni toping.

- A. Yozda biz dam olgani ketamiz.
- B. Dilbar yo'q, chunki u kasal.
- C. Rejali ish buzilmaydi.
- D. Karim kelsa shaxmat o'ynaymiz.

10. Ko'makchi qatnashgan gapni toping.

- A. Basketbol bilan shug'ullanaman.
- B. Avval ovqatlanib oldik.
- C. Biznikiga kelib turing.
- D. Avval hamma jim o'tirdi.

11. Ko'makchi qatnashgan gapni toping.

- A. Bizning sportchilar musobaqada yuqori o'rinlarni olishdi.
- B. Anvar ham, Olim ham yo'q
- C. Bu ishni biz to'rt soatda bajardik.
- D. Men siz bilan boraman.

12. Maktabimiz oldida katta bog' bor. Gapdagi oldida so'zi rus tiliga qanday tarjima qilinadi?

- A. около B. напротив C. посередине D. Вблизи

VAZIFADOSH KO'MAKCHILAR VA UNING O'QITILISHI.

(ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ФОРМЫ ПОСЛЕЛОГОВ И ИХ ОБУЧЕНИЕ)

O`zbek tilshunosligida ko`makchilar tadqiqiga oid qator izlanishlar ichida tilshunos olimlar H.Berdiyev, A.N.Kononov, Sh. Shoabdurahmonov, T.Rustamov, R.Rasulov, U.Tursunov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar diqqatga sazovordir. Bu ishlarda ko`makchilarning morfologik xususiyatlari, gapda birgalik, payt, o`rin, sabab, maqsad, vosita kabi turli munosabatlarni hosil qilishi, vazifa jihatdan kelishiklarga yaqin turishi, turlari, funksional-stilistik xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan³.

Mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlarning farqini tushuntirish uchun *Men yaxshi niyat bilan maktab bog'iga besh tup olma va olcha ko'chati o'tqazdim* tarzidagi gap olinib, ular ishtirokida mustaqil va yordamchi so'zlar aniqlanadi.

Bunda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin:

So'zlar	Leksik ma`nosi	So'rog'i	Qaysi so'z turkumi
Men	Shaxs	kim?	olmosh
yaxshi	belgi	qanday?	sifat
niyat	his-tuyg'u	nima	ot
bilan	-	-	ko'makchi
besh tup	miqdor	qancha?	son
olma, olcha	predmet	nima?	ot

³Berdiyev H. Hozirgi o`zbek adabiy tilida ko`makchilar: Filol.fan.nom. ...dis. avtoref. - Samarqand, 1949;Kononov A.H. Послелоги в современном узбекском литературном языке. –Ташкент, 1951; Shoabdurahmonov Sh. O`zbek tilida yordamchi so`zlar // Hozirgi zamon o`zbek tili kursidan materiallar. -Toshkent: O`zFA, 1953; Rustamov T. Hozirgi o`zbek adabiy tilida ko`makchilar. - Tashkent: Fan, 1965; Shu muallif. Sof ko`makchilar. -Toshkent: Fan, 1991; Rasulov R. O`zbek tilida yordamchi so`zlarning semantik-grammatik xususiyatlari. -Toshkent: Fan, 1988; Ko`makchi // U.Tursunov, J. Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -Toshkent: O`qituvchi, 1992. -B. 374-381.

va	-	-	bog'lovchi
ko'chati	predmet	nima?	ot
o'tqazdim	harakat	nima qildim?	fe'l

Ko'makchining ot yoki olmoshlar bilan, shuningdek, ot o'rnida kelgan harakat nomi hamda sifatdoshlardan so'ng ham qo'llanishi quyidagi misollar asosida uqtiriladi: *Anvar yuzidagi kulguni yashirish uchun chetga qaradi.* (A.Qodiriy) *Chiroyli yozish uchun mashq qilish kerak. Ra'no a'lo o'qigani uchun mukofotlandi.*

Yo'lchi uchun (Yo'lchiga) keltirilgan tugunchak yodiga tushdi. (Oybek) *O'qish uchun (o'qishga) ketdi. Samolyot bilan (samolyotda) keldi* misollari orqali ba'zi ko'makchilar o'rnida kelishik qo'shimchalarini qo'llash mumkinligi izohlanadi. Shu bilan birga, ko'makchilar o'rnida kelishiklarni qo'llay berish har vaqt ham to'g'ri chiqavermasligini misollar bilan ko'rsatib o'tish kerak. Masalan, *Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bog'da ishlaydi* (Oybek) gapidagi **buyon, bilan** ko'makchilari o'rniga kelishik qo'shimchalarini qo'yib bo'lmaydi. Demak, ko'makchi kelishikka nisbatan ma'noni kengaytiradi, kelishik orqali ifodalab bo'lmaydigan so'zlar orasidagi sintaktik aloqa ko'makchilar orqali beriladi ⁴.

"Ko'makchilar ma'no jihatdan bir xil emas. Ulardan ayrimlari (*bilan, uchun, qadar, sari, kabi*) mustaqil ma'no anglatmaydi, vazifa jihatdan kelishik affikslariga yaqin turadi; ba'zilari esa (*old, ora, ich, to'g'ri, orqa*) ma'lum darajada o'z leksik ma'nolarini saqlaydi va o'rin kelishiklari bilan turlanib, ko'makchi o'rnida qo'llanadi. Shunga ko'ra ko'makchi dastlab ikki turga bo'linadi: 1. *Sof ko'makchi.* 2. *Vazifadosh ko'makchi.*

Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan ko'makchilar *sof ko'makchilar* (*bilan, sari, yanglig', sayin, uchun, kabi, qadar, dovur, doir, oid,*

⁴Yoqubov G'., Rasulov I., Rustamov H., Mirzaahmedov B. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1975. - B. 163-164.

singari, uzra, tufayli, haqida)dan tashqari boshqa so'z turkumlari (ot, fe'l, ravish)dan bo'lgan, lekin ko'pincha ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar ham mavjud bo'lib, ular **vazifadosh ko'makchilar** hisoblanadi. Bunday so'zlar ko'makchi vazifasida kelganda atash ma'nosini yo'qotadi, shuning uchun ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydi⁵.

Sof ko'makchilar	Vazifadosh ko'makchilar
<i>bilan, sari, yanglig', sayin, uchun, kabi, qadar, dovur, doir, oid, singari, uzra, tufayli, haqida</i>	<i>ost, yon, ust, old, orqa, ro'para, oldin, avval, keyin, so'ng, tomon, qosh, bo'ylab, qarab, ko'ra, deya, deb, atab, tomon, qarab, qaramay, qaraganda, qaramasdan, ichra, to'g'risida, yo'sinda, bo'yi, binoan, muvofiq, o'zga, burun, ilgari, boshlab, bobida, tortib</i>

Bilan ko'makchisining **va** bog'lovchisi vazifasini bajarishini tushuntirishda quyidagi ma'lumotga asoslanish lozim:⁶

“Ko'makchilarning bog'lovchilashuvi ko'makchilar bilan bog'lovchilarni har xil leksik-grammatik kategoriyalar maqomida farqlovchi belgi-xususiyatlarning betaraflashuvi – neyiralizatsiyasi tufayli vujudga keladi. Bunda ko'makchilarning gap bo'laklarini (to'ldiruvchi, hol) shakllantirish funksiyasi barham topadi, ularda bog'lovchilar turkumiga xos lisoniy layoqati paydo bo'ladi. Masalan, **bilan** yordamchisi "*Qalandarov... Nazarov bilan so'rashdi*" (A.Qahhor) gapida o'z turkumi - ko'makchiga xos vazifa bajargan bo'lsa, "*Qalandarov bilan Nazarov so'rashdi*" gapida **va** (*Qalandarov va Nazarov*) bog'lovchisi vazifasini bajargan, u bilan sinonimik muqobil birlikka aylangan”.

⁵ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -Toshkent: "Ma'naviyat". 2013. -B. 80.

⁶ Turdiboyev T. O'zbek tilida yordamchi so'zlar konversiyasi: Filol. fan. nom. ...dis. avtoref. -Toshkent, 1996. – B. 14.

Vazifadosh ko'makchilarni tushuntirishda quyidagi qiyosiy misollarga murojaat etiladi:

Mustaqil so'z turkumi	Vazifadosh ko'makchi
<p>1. <i>Avval o'yla, keyin so'yla.</i> (Maqol) .</p> <p>Avval, keyin so'zlari payt ravishlari, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi, payt holi.</p>	<p><i>Siz bilan hamsuhbat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim.</i> (O.Yoqubov)</p> <p>Avval ko'makchi, qachon? so'rog'iga <i>hamsuhbat bo'lmasdan avval</i> birikmasi javob bo'lib, chiqish kelishigi bilan qo'llanadigan ko'makchi, birikmali payt holi.</p>
<p>2. <i>Ilgari bunday zamonaviy binolar bo'lmagan.</i></p> <p>Ilgari so'zi payt ravishi, payt holi.</p>	<p><i>Bu ishga qadam qo'yishdan ilgari bir karra sizning oldingizdan o'tib, ra'yingizni bilishga to'g'ri keldi.</i> (Oybek)</p> <p>Ilgari ko'makchi, chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanadi, qachon? so'rog'iga qadam qo'yishdan ilgari birikmasi javob bo'ladi, birikmali payt holi.</p>
<p>3. <i>Devor usti yomg'irdan iviy boshladi.</i></p> <p>Usti ot so'z turkumi, III shaxs birlikda, qayer? so'rog'iga javob bo'ladi, ega.</p>	<p><i>Kitob ustida uzoq ishladi.</i></p> <p>Ustida so'zi ko'makchi, qaratqich kelishigidagi so'z bilan qo'llanadi, nimaning ustida? so'rog'iga javob bo'ladi, vositali to'ldiruvchi.</p>
<p><i>Muzeydaoldin bo'lgan.</i></p>	<p><i>Mendan oldin so'zladi.</i></p>

4.	Oldin so'zi payt ravishi, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi, payt holi.	Oldin so'zi ko'makchi, chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanadi, qachon? so'rog'iga mendan oldin birikmasi javob bo'ladi, payt holi.
5.	<i>Devordan bo'ylab qaradi.</i> Bo'ylab ravishdosh, ravish holi.	<i>Ariq bo'ylab ketdi.</i> Ariq bo'ylab ko'makchili birikma, nima bo'ylab? so'rog'iga javob bo'ladi, vositali to'ldiruvchi.
6.	<i>Qoshida o'smasi bor ayol keldi.</i> Qoshida ot so'z turkumi, nimasida? so'rog'iga javob bo'ladi, vositali to'ldiruvchi.	<i>Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas.</i> Qoshida ko'makchi, kimlarning qoshida? savoliga javob bo'ladi, vositali to'ldiruvchi.
7.	<i>Ukangga qarab qo'y.</i> Qarab qo'y ko'makchili birikma, qarab asosiy fe'l, qo'y ko'makchi fe'l.	<i>Insonning fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi.</i> Qarab ko'makchi, nimasiga qarab? savoliga javob bo'ladi, ravish holi.

Yuqorida tahlil etilgan gaplar tarkibidagi vazifadosh ko'makchilarning qaysi so'z turkumira oidligini aniqlash maqsadida quyidagi jadvalga murojaat etiladi⁷ :

OT	SIFAT	RAVISH	SIFATDOSH	RAVISHDOSH
-----------	--------------	---------------	------------------	-------------------

⁷Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. -Toshkent: "Akademnashr". 2011. – B. 222-223.

tomon	boshqa	avval	qaraganda	qarab
tashqari	bo'lak	buyon	qaramasdan	qaramay
chamasi	o'zga	so'ng		qarata
misoli				
yo'sinda	sababli	oldin		ko'ra
bo'yi	chog'li	burun		osha
osti	qarshi	ilgari		bo'ylab
tagi	doir	keyin		yarasha
usti	muvofig	beri		boshlab
oldi		nari		tortib
orqasi		bo'yicha		ko'ra
yoni		ichra		
ichi		asosan		
holda		uzra		
yo'sinda		binoan		
orasi				
o'rtasi + -ga/ - da/ -dan				

Shuningdek, "... *bosh, qosh, lab, og'iz, oyoq, qorin* kabi tana a`zolari nomi ham ko'makchi vazifasida keladi⁸".

"**Ko'makchi**" mavzusiga qadar o'rganilgan "*Sening yoningga shoshmoqdaman*", "*Yo'l boshida kutaman*", "*Xalq orasida yurdim*", "*Mehnatiga yarasha haq oldi*", "*Qiyinchiliklarga qaramay o'z niyatiga erishdi*",

⁸ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: "Fan va texnologiya.2009. -B. 273.

"Sizga qaraganda yaxshi o'qiydi", "Hammadan avval yetib keldi", "Mustaqillik bayrog'i ostida ildam qadamlar tashlayapmiz", "Mavzu ustida bahslashdik" kabi gaplar tarkibidagi *yoningga, boshida, orasida* so'zlarining ot; *qaramay, yarasha, qaraganda* so'zlarining fe`l; *avval, ustida, ostida* so'zlarning ravish emas, balki ko'makchilar ekanligi aytilib; ularning ot, fe`l, ravishdan farqli tomonlari ta`kidlab o'tilishi lozim bo'ladi. Quyidagi gaplarda berilgan *ko'ra* leksemasining ma`nolarini qiyoslaymiz:

1. *Yaxshi-yomonni ko'ra-ko'ra odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratib oladigan bo'lib qolgan.* (A.Qahhor)
2. *Qalandarovdan shikoyat boshlashdan ko'ra ko'proq bu noqulay ahvoldan chiqish uchun...* (A.Qahhor)

Birinchi gapda qo'llanilgan *ko'ra* "ko'z bilan ko'rmoq, kuzatmoq" semasiga ega bo'lsa, ikkinchi gapda "ko'rish" semasi kuchsizlangan va "chog'ishtirish, qiyoslash" grammatik ma`nosini voqelantirgan. Birinchi gapda qo'llanilgan *ko'ra* **ko'rmoq** fe`lining ravishdosh shakli bo'lsa, ikkinchi gapda fe`l ko'makchi (boshlashdan ko'rako'proq) sifatida tobelanish munosabatini hosil qilgan.

Ma`lum bir leksemaning mustaqil so'z turkumi yoki ko'makchi ekanligini farqlashning yana bir usuli o'zi birikib kelgan so'zning qaysi kelishikda ekanligini aniqlash hamdir. Masalan:

1. *Avval darslaringni tayyorla.*
2. *Sendan avval darslarimni tayyorlab bo'ldim.*
3. *Tez aytishni boshlab berdi.*
4. *Uy vazifasini sendan boshlab so'rayman.*
5. *Qarshi ovozlari yo'q.*
6. *Senga qarshi ovoz berganim yo'q.*
7. *O'ziga muvofiq ish topdi.*
8. *Qonunga muvofiq jazosini oldi.*

Misollardan ko'rinib turibdiki, 2-, 4-, 6-, 8- gaplarda ko'makchilar (*avval, boshlab, qarshi, muvofiq*) qo'llangan bo'lib, 2-, 4- ko'makchilar (*avval, boshlab*) o'zi birikib kelgan so'zning chiqish kelishigi; 6-, 8- gaplardagi ko'makchilar

(*qarshi, muvofiq*) esa jo'nalish kelishigi qo'shimchasini talab etadi. Demak, 1-, 3-, 5-, 7- gaplar tarkibidagi *avval* (ravish), *boshlab* (ravishdosh), *qarshi, muvofiq* (sifat) so'zlari mustaqil so'zlar hisoblanadi.

Ko'makchilar quyidagi kelishiklar bilan birga qo'llanadi: (Послелогии применяются со следующими падежными аффиксами)

Bosh kelishikdagi so'z va ba`zan qaratqich kelishigidagi so'z bilan	Qaratqich kelishigidagi so'z bilan	Jo'nalish kelishigidagi so'z bilan	Chiqish kelishigidagi so'z bilan
<i>bilan, uchun, kabi, singari, yanglig', sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog'li, osha, bo'ylab, uzra, ichra, bo'yi, chamasi, haqda// to'g'rida, haqida// to'g'risida, holda// yo'sinda</i>	<i>ost, tag, ust, old, orqa, yon, qarshi, bo'yi, ich, o'rta, bosh</i>	<i>tomon, qadar, ko'ra, qarshi, qarab, qaraganda, qaramasdan, yarasha, doir, asosan, binoan, muvofiq, qarata</i>	<i>so'ng, keyin, boshqa, bo'lak, tashqari, o'zga, beri, buyon, nari// nariga, burun, ilgari, oldin, avval, boshlab, tortib</i>

Qo'shimcha ma'lumot shaklida shuni ta'kidlash mumkinki, o'zbek tilida ayrim ko'makchilar bajarayotgan grammatik vazifa rus tilida kelishik shakllari orqali ifodaladi

**O'zbek tilidagi ko'makchilarning rus tilida kelishik shakllari
yordamida ifodalanishi.**

▼ Запомните! Eslab qoling!

1) Слова, отвечающие на вопросы с кем?, с чем?, чем? переводятся на узбекский язык именительным падежом в сочетании со словом bilan. **Например: Anvar akasi bilan keldi.** – Анвар пришел со старшим братом. **Men qalam bilan yozdim.** – Я написал карандашом.

2) Слова, отвечающие на вопрос кем? в сочетании со словом быть, на узбекский язык переводятся именительным падежом со словами bo'lmoq, emoq. **Например: Men murabbiy bo'laman.** – Я буду тренером. **Sergeyning otasi o'qituvchi edi.** – Отец Сергея был учителем.

▼ **Запомните! Eslab qoling!**

Значения русского предложного падежа в узбекском языке передаются различными способами.

1. Функцию предлога **о** (об, обо) в узбекском языке выполняют послелого **haqida, to'g'risida**, которые сочетаются с именительным падежом. **Например: O'zbekistonning mashhur sportchilari haqida maqola o'qidim.** – Я прочитала статью о знаменитых спортсменах.

2. Функцию предлога **при** выполняет в узбекском языке послелог **qoshida**. **Например: Institut qoshida ilmiy laboratoriya bor.** – При институте есть научная лаборатория.

▼ **Запомните! Eslab qoling!**

Ko'makchilarning kelishik shakllari bilan sinonimligi nafaqat o'zbek va rus tillari orasida, balki o'zbek tilining o'zida ham ayrim holatlarda kuzatilishi mumkin.

1. **Onam uchun sovg'a oldim. – Onamga sovg'a oldim.**
2. **Toshkentga bordim. – Toshkent tomon bordim.**

Shu o'rinda "**Yordamchi so'zlar. Ko'makchi**" mavzusi yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1-TOPSHIRIQ."**Yordamchi so'zlar. Ko'makchi**" mavzusi yuzasidan olingan ma'lumotlar quyidagi nazariy savollar asosida mustahkamlanadi:

1. O'zbek tilida yordamchi so'zlar turkumi mustaqil so'zlardan qanday farqlanadi?

2. Yordamchi so'zlar gapda qanday vazifa bajaradi?
3. O'zbek tilshunosligida yordamchi so'zlar qaysi tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan?
4. Ko'makchilarning morfologik xususiyatlarini misollar asosida bayon eting.
5. Ko'makchilar gapda asosan qaysi kelishikdagi otlarga bog'lanib keladi?
6. Ko'makchilar gap tarkibida qanday grammatik ma'nolarni hosil etadi?
7. Sof ko'makchilarni sanab bering va ularga misollar keltiring.
8. Vazifadosh ko'makchilarni ayting va ularga misollar keltiring.
9. Qaysi ko'makchilar presuppozitsiyaga ishora qiladi? Misollar keltiring.

2- TOPSHIRIQ. Gaplarni o'qing. Ko'makchilarni topib, ularning ishlatilish o'rinlariga diqqat qiling.

1. To'g'ri so'z o'z egasini najot sari yetaklaydi. (Yusuf Xos Hojib) 2. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. 3. To'ydan keyin nog'ora chalmoq nodonlar ishi. 4. Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi. 5.

Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalarida suv yaltiraydi. (O'.Hoshimov) 6. Millat tushunchasi hamisha Vatan bilan yonma-yondir, misoli jism-u jondir. (B.Qosimov)

7. Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,

O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,

Holimizni jim kuzatdi Yassaviylar,

Topganimiz handalakdek tilim-tilim,

Ona tilim, kechir meni, ona tilim! (M.Yusuf)

8. Do'st bilan obod uying,

Gar bo'lsa u vayrona ham,

Do'st qadam qo'ymas esa,

Vayronadir koshona ham. (E.Vohidov)

3- TOPSHIRIQ. Berilgan ko'makchilarning sof yoki vazifadoshligini aniqlab, jadvalga joylashtiring.

Qadar, yonida, pastida, qoshidan, kabi, singari, buyon, qaraganda, bilan, tomon, uchun, bo'ylab, sababli, ichida, boshqa, keyin, ko'ra, tashqari, oldida, qarshi, tufayli, sari, sayin, ostida.

Sof ko'makchilar	Vazifadosh ko'makchilar

4- TOPSHIRIQ. Nuqtalar o'rniga **uzra, uchun, keyin, singari, bilan, haqida** ko'makchilardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring, ko'makchilarning ishlatilish o'rinlarini izohlang.

1. *Inson go'zalligi ... emas, balki mehnati ... kamol topadi.* (M.Qosimova)
2. *Balki, ertalab o'ziga isitib berish ... shunaqa deyayotgandir.* (O'.Hoshimov)
3. *U anchadan ... o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi.* (O'.Hoshimov)
4. *Kimyogar ba'zi ilmlar ... suhbatlashgandan ... uning zehniga, ma'lumotining kengligiga taajjurlanganiniyashirmadi.* (Oybek)
5. *Qish qo'ynidan baxt ... yoz uchib kelur.* (Mirtemir)
6. *Barchasidan qovun soz, Paykal ... dumalar.* (R. Isoqov)

5- TOPSHIRIQ. *Ustiga, ichida, tashqari, boshqa, keyin, qaraganda, ko'ra, ilgari, burun, oldin, avval, beri, buyon* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Birinchi gapda ular mustaqil so'z ma'nosida, ikkinchi gapda esa ko'makchi vazifasida kelsin.

Namuna: *To'ra ko'zidan tilla oynagini olib, stol **ustiga** qo'ydi va stol o'rtasida yoyilib yotgan gazetaga qaradi.* (Cho'lpon) - *Qish o'tib, bahor kelishi bilan Qorabog'da o'tkazilgan qurultoyda Boyazidning **ustiga** yurishga qaror qilindi.* (Xurshid Davron)

6- TOPSHIRIQ. Rasmlardan foydalanib “Milliy o‘yinlar“ va “Milliy liboslar” mavzusida matnlar tuzing. Matnda ko‘makchilani qo‘llab, sof va vazifadosh ko‘makchilarga ajrating.




7- TOPSHIRIQ. Faqat vazifadosh ko'makchilar ishtirok etgan qatorni aniqlang. Ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

- 1) bilan, orqa, ko'ra, o'rtada;
- 2) sari, boshida, qadar, maqsadida;
- 3) ustida, ichida, qoshida, tomon;
- 4) sababli, oldida, uchun, qarab.

8- TOPSHIRIQ. Quyidagi so‘z birikmalariga tushib qolgan ko‘makchilarni qo‘yib ko‘chiring va krossvordga mos ravishda ko‘makchilarni joylab chiqing.

1. Arizasiga..... bo'shamoq; 2. Do'sti gapirmoq; 3. Tog' bormoq; 4. Kasalligi ketmoq; 5. Darsdan uchrashmoq; 6. Onasi olmoq; 7. Do'sti bormoq.



Shuningdek, "Ko'makchi" mavzusini o'rganish jarayonida bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilar; jo'nalish kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilar; chiqish kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilar ro'yxatini tuzish, ularni ma`nodoshlari bilan almashtirish, kelishik qo'shimchalarini ko'makchi bilan yoki aksincha, ko'makchini kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish kabi topshiriqlarni ham bajarish mumkin.

Mazkur mavzuni o'rganishda **MYABT-4 (matn yaratishning bosqichli tizimi)** dan foydalanish mumkin:

1. Sof va vazifadosh ko'makchilarni ro'yxat qilish.
2. Ko'makchili so'z birikmalari hosil qilish.
3. Mazkur birikmalardan gaplar tuzish.

4. Gaplardan birini tanlab, shu mavzuda ko'makchili birikmalar ishtirok etgan kichik matn yaratish⁹.

Mavzu yuzasidan takrorlash va mustahkamlashda savollar tuzish, mustaqil mashq ishlatish, berilgan ko'makchilar ishtirokida gap tuzdirish, yod biladigan she`rlaridan ko'makchili misralarni yozdirish, ko'makchilarga doir jadvallar chizdirish kabilarni ham keng qo'llash mumkin.

"LINGVOBELLASHUV" O'YIN-MASHG'ULOTI

"Ko'makchi" mavzusini takrorlashda lingvistik bellashuv mashg'ulotini tashkil etish mumkin. Quyida bu haqda fikr yuritamiz:

"Lingvobellashuv" o'yin-mashg'ulotida quyidagi o'quv materiallaridan foydalanish ko'zda tutiladi:

1. Grammatik topshiriqlar bayon etilgan konvert.
2. Tarqatma materiallar.

Bilan bog'lovchi vazifasida kelgan o'rinlarni aniqlab, gaplarni ko'chiring.

1. Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirdan yoki tengdoshdan. (A. Oripov)

2. Nozimaxon goh mashinkasini, goh tikuv mashinkasini yurgizib allamahalgacha ishlab o'tiribdi. (X. Sulton)

3. Matniyoz xotini nima desa shuni qilardi-yu, lekin ich-ichidan unga achinib qo'yardi. (A. Muxtor)

4. Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra. (N. Aminov)

Bilan bog'lovchi vazifasida kelgan o'rinlarni aniqlab, gaplarni ko'chiring.

1. Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o'ralgan qurilish

⁹To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (O'quv qo'llanma). -Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2006. -B. 127.

hovlisiga chang-to'zon ko'tarib «ZIL» mashinasi kirib
keldi.(O'.Hoshimov)

2. Oyim yenglari bilan yig'idan qizarib ketgan ko'zlarini artib, tasalli
berayotgan O'rozmatning so'zlarini bosh irg'ab ma'qullar, ich-ichiga
botib ketgan ko'zlari bilan dom-daraksiz ketgan bolalarini go'yo
ko'rmoqchi bo'lgandek olis-olislarga tikilardi. (Ch.Aytmatov)

3. Tun bilan kun,
O't bilan suv
Bir-biriga zolimdir.
Koinotda azal,
Mangu
Isyon ruhi hokimdir. (E.Vohidov)

4. — O'tgan kuz biznikiga mehmon bo'lib kelishdi-ku — kelinbibisi
bilan birga?(Cho'lpon)

Gaplardan ko'makchi vazifasida kelgan so'zlarni aniqlab, gaplarni
ko'chiring.

1. Zamin uzra qor quyunin
Yogdirganda charx-falak,
Qish qahriga egmay bo'yin
Isyon qilar Boychechak. (E.Vohidov)

2. Aytmoqchi, o'shanda alvastini jarga tashlashda Robi opam bilan tabib

buvaning Olimjon degan o'g'liyam yordam berishgan ekan.

(O'.Hoshimov)

3. Tug'ilsaydi Nazrul agar

Yarim ming yil nlgari,

Bitar edi ruboiylar

Mirzo Bobir singari.

4. Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro'zg'orini oyim bilan singilcham tebratib turardi. (Ch.Aytmatov)

Gaplardan ko'makchi vazifasida kelgan so'zlarni aniqlab, gaplarni ko'chiring.

1. Sobir inson yuragida

Qanoatki barqaror,

Kosa yanglig'

Sabr tagida

Otash yanglig' isyon bor. (E.Vohidov)

2. Uning ovuldagi kelinlar bilan yumdalashgan vaqtlari ham bo'lgandi.

(Ch.Aytmatov)

3. Keyin qaddini rostlab jigarrang shimining cho'ntagidan tamaki xaltasini oldi. (O'.Hoshimov)

4. Shunga teng-to'shlarim bilan bir borib kelmoqchiman.

Sizni ham olib boraman...(Cho'lpon)

3. Test ishlanmasi.

1. Qaysi qatorda jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar berilgan.

A) Asosan, binoan, muvofiq.

B) Bo'yicha, ichra, degan.

C) Tepa, ost, tag.

D) Nari, boshlab, tortib.

2. Bosh kelishidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar qatorini aniqlang.

A) Tomon, qadar, ko'ra.

B) So'ng, avval, keyin.

C) Bilan, uchun, kabi.

D) Oid, o'rta, yon.

3. Ost, ust, old ko'makchilari qaysi kelishidagi so'zlarga qo'shiladi?

A) bosh

B) qaratqich

C) jo'nalish

D) chiqish

4. -dek qo'shimchasi qaysi ko'makchi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi?

A) asosan

B) bo'ylab

C) yanglig'

D) yarasha

5. 1. Avval oyla, keyin so'yla. 2. Bu kitob qo'lga tushgandan keyin, bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi. Har ikki gapdagi keyin so'ziga izoh bering.

- A) har ikkala gapda ko'makchi
- B) 1- gapda ko'makchi, 2-gapda mustaqil so'z
- C) har ikkala gapda mustaqil so'z
- D) 1-gapda mustaqil so'z, 2-gapda ko'makchi

6. Bilan qanday hollarda ko'makchi vazifasini bajaradi?

- A) bosh kelishikdagi so'zlarni boshqa kelishikdagi so'zlargabog'lab kelganda
- B) uyushiq bo'laklar va gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laganda
- C) uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganda
- D) o'zaro tobe bog'lanuvchi so'zlarni bog'laganda

7. Qiyoslash ma'nosiga ega bo'lmagan ko'makchini toping.

- A) kabi
- B) yanglig'
- C) singari
- D) tufayli

8. Qaysi gapda ko'makchi mavjud emas?

- A) Otni soy bo'yiga bog'ladi-da, o'zi yuqoriga chiqib ketdi.
- B) Badiya bilan Ma'suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi.
- C) Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas.
- D) Fursat ganimatdir, shox satrlar-la bezamoq chog'idir umr daftarin.

9. Qaysi gapda sof ko'makchi qatnashmagan?

- A) Barchasidan qovun zo'r, paykal uzra dumalar.
- B) Muhbirimiz telefon orqali xabar berdi.
- C) Qalam-la men to'qiyman qo'shiq, Bu - insonga, elga xizmatim.

D) Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklikning ayni o'zidir.

10. 1. Gap futbol oyini ustida ketardi.

2. Qoziq ustida qor turmas.

Gaplardagi ustida so'ziga izoh bering.

A) har ikkisida mustaqil so'z

B) 1-gapda ko'makchi, 2- gapda mustaqil so'z

C) har ikkisida ko'makchi

D) 1-gapda mustaqil so'z, 2- gapda ko'makchi

Balki so'zi bog'lovchi vazifasida kelgan gaplarni daftaringizga yozing.

1.Bo'ron dan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko'paydi.(Sh.Rashidov) 2. Xalqni qo'rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir. 3. Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi. (M.Qosimova) 4. Balki, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deya yotgandir. (O'.Hoshimov) 5. Inson go'zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi. (M.Qosimova)

"Lingvobellashuv" o'yin-mashg'uloti quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

1-bosqich: O'quvchilar 2 guruhga ajraladilar. Bellashuv mana shu ikki lingvistik guruh o'rtasida o'tkaziladi.

Grammatik topshiriqni bajarish. Topshiriq sharti: 4 daqiqa davomida berilgan topshiriqlarni bajaring. Har bir to'g'ri bajarilgan topshiriqqa 1 ball beriladi.

Ushbu topshiriqlar bajarilgandan so'ng guruhlar navbatdagi bosqichdagi topshiriqni bajaradilar.

"Bilimingizni amaliyotda sinab ko'ring" topshirig'ini bajarish.

Topshiriq sharti:Quyidagi nazariy bilimlarga misollar yordamida izoh bering:

1. Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchi deyiladi: va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo... yo, dam...dam, goh...goh singari.

2. Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi yordamchilar vazifadosh bog'lovchilar sanaladi.

3. *Bilan* ham ko'makchi, ham bog'lovchi; ham, na...na ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasini bajaradi.

4. - *u* (-*yu*), -*da* yordamchilari ham yuklama, ham bog'lovchi; *balki* ham bog'lovchi, ham modal so'z vazifasini bajaradi.

Guruh a`zolari misollar tahlili asosida bog'lovchilarning mana shu umumiy xususiyatlarini izohlab berishlari lozim bo'ladi. Har bir to'g'ri izohlangan javobga 1 ball beriladi.

2-bosqich:tarqatma materiallar ustida ishlash.

1-tarqatmaNa..., na... yordamchi so'zlarning qaysi vazifada kelganligini aniqlang.

1. Sharifning haqiqat ufurib turgan gaplariga qarshi na Nozima bir narsa deya oldi, na Nabijon. 2. Bepoyon dasht bag'riga yashiringan chashmani na Qahramon, na Bahrom topa olmadi. 3. Sen na boy erursan va na kambag'al, Yashaysan bir-biring aldab galma-gal. (A. Oripov) 4. Hamid yaratmoqchi bo'lgan yangi paxta navi haqida hozircha na institut direktoriga, na do'sti Umidga hech nars demadi.

2-tarqatma

Matn tarkibidagi bog'lovchilarni topib, ularni izohlang.

Shavkat qushdagi o'zgarishdan tashvishga tushdi. Otasidan buning sababini

so'radi.

-Yorug' dunyodagi har bir maxluqot, avvalo, ozod va erkin yashash uchun yaratilgan, -dedi Abduqodir aka.

-Unda odamlar nega hayvonlarni hamda qushlarni qo'lga o'rgatishadi, qafasga solishadi?

-Bir vaqtlar odamzod ona tabiat bilan bir tan-u bir jon bo'lgan, endi esa tabiat ustidan zo'ravonlikka o'tdik, buning oqibati yaxshi bo'lmaydi.

Shavkat uchun bu gap yangilik edi. (Sh.Otaboyev)

3-tarqatma

Bog'lovchi vazifasida kelgan ko'makchi va yuklamalarni aniqlab, qaysi bog'lovchi vazifasida ishlatilganini ayting.

1.Sen kampirga tushuntira olmaysan-u, kampir senga tushuntiribdi. (S.Zunnunova) 2. Kuzning sovug'i keldi-yu, ammo yog'ini kelmadi. (H.G'ulom) 3. Hovli to'ridan Ibodilla bilan La`li, hovli etagidan Qobil bilan Bahri ayvon oldiga yugurib keldilar. (H.G'ulom) 4. Attang! Bu bilim olibdi-yu, ta`lim olmabdi, ha, bilim boshqa, ta`lim boshqa. (Mirmuhsin) 5. "Oq oltin"ni yetkazamiz, Elimiz boy bo'lsin deb, Erta-yu kech ter to'kamiz, Yurt oltinga to'lsin deb. (Sh. Sa`dulla)

4-tarqatma

Nuqtalar o'rniga quyidagi berilgan bog'lovchilardan mosini qo'ying.

Bog'lovilarga izoh bering.

1. Tog'ga chiqishda Boburning o'smirliги juda ish berdi. U hammadan oldin toshdan toshga engil ko'tarilib borar, ...onasiga, ... opasiga yuqoridan qo'l cho'zib yordamlashib qo'yardi. (P.Qodirov) 2. Kecha... kunduz aqliy mehnat bilan mashg'ul bo'lgan alloma vaqtning qanday tez o'tayotganini

sezmas edi. (Mirkarim Osim) 3. Sobirjonning yoshi oldida, ... yoshiga nisbatan bo'yi past. (S.Mardiyev)

Bog'lovchilar: *va, ammo, -u, -yu, goh..., goh...*

Berilgan tarqatmalardagi to'g'ri va tez bajarilgan topshiriqqa 3 ball qo'yiladi.

Mavzu yuzasidan takrorlash va mustahkamlashda savollar tuzish, mustaqil mashq ishlatish, berilgan ko'makchilar ishtirokida gap tuzdirish, yod biladigan she'rlaridan ko'makchili misralarni yozdirish, ko'makchilarga doir jadvallar chizdirish kabilarni ham keng qo'llash mumkin.

"KIM BILADI?" O'YIN - MASHG'ULOTI

Bu o'yindan "Ko'makchilar" mavzusini o'tishda foydalanish mumkin.

"Kim biladi?" o'yin mashg'ulotida quyidagi o'quv materiallaridan foydalanish ko'zda tutiladi:

1. Qog'ozdan yasalgan turli ranglarga bo'yalgan yulduzchalar.
2. Tarqatma materiallar.
3. Grammatik topshiriqlar bayon etilgan konvertlar.

"Kim biladi?" o'yin -mashg'uloti 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Bu bosqichda "Kim biladi?" o'yinini boshlashdan avval o'quvchilar 2 guruhga ajraladilar. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi.

2-bosqich. Izoh berish topshirig'i.

Topshiriq sharti: Vazifadosh ko'makchilarni izohlang.

Bu topshiriqni bajarishda guruhlar o'zaro bellashadilar. Har bir guruh a`zolari o'zaro kelishilgan holda raqib guruhga ma`nosini izohlash uchun vazifadosh ko'makchilarga doir so'zlarni aytadilar.

Raqib guruh tomonidan berilgan vazifadosh ko'makchilarga tezkorlik bilan to'g'ri va qisqa izoh berishi lozim bo'ladi.

3-bosqich. So'nggi bosqichda guruhlar tomonidan to'plangan ballar sarhisob qilinadi. Har bir to'g'ri izohlangan javobga 1 ball beriladi. Eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib hisoblanadi.

"Kim biladi?" o'yin-mashg'ulotida vazifadosh ko'makchilarga oid quyidagi izohlash o'yinini tashkil etish mumkin:

1-guruh: - Avval.

2-guruh: Avval so'zi mustaqil so'z turkumi sifatida payt ravishiga oid so'z. Masalan, *Avval o'yla, keyin so'yla*. Yordamchi so'z sifatida esa chiqish kelishigidagi so'z bilan birikib keladigan vazifadosh ko'makchi. Masalan, Mendan avval yetib kelgan.

2-guruh: -Tortib.

1-guruh: Tortib so'zi mustaqil so'z turkumi sifatida ravishdosh. Masalan, Ariqdan tortib oldi. Yordamchi so'z sifatida chiqish kelishigidagi so'z bilan birikib keladigan vazifadosh ko'makchi. Masalan, Sendan tortib hammadan so'rayman.

1-guruh: -Qarab.

2-guruh: Qarab so'zi mustaqil so'z turkumi fe`lga, ya`ni ravishdoshga oid. Masalan, Tashqarini qarab ko'r-chi. Yordamchi so'z turkumi sifatida vazifadosh ko'makchi. Masalan, Maktabga qarab ketdi.

2-guruh: -To'g'risida.

1-guruh: - ...

1-guruh: Ustida.

2-guruh: - ...

"Kim biladi?" o'yin-mashg'uloti o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi, ularni topqirlikka o'rgatishi jihatidan ahamiyatli.

"Ko'makchi" mavzusini o'zlashtirish uchun quyidagi test savollaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

TEST

3-bosqich: Test ustida ishlash.

1. Qaysi javobda bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga ikkitadan misol keltirilgan?

A. nahotki, basharti, qadar, balki, hatto, faqat

B. naq, negaki, sayin, atigi, hamda, uzra

C. atigi, hatto, naq, mabodo. tufayli, uzra

D. nahotki, hatto, sayin, ya`ni, tufayli, uzra

2. Qaysi javobda yordamchi so'zlar bajaradigan vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan?

1) mustaqil so'zlarni va gaplarni tobe munosabatda bog'lash; 2) mustaqil so'zlarni va gaplarni teng munosabatda bog'lash; 3) mustaqil so'zlarga qo'shimcha ma`no yuklash; 4) so'zlarga yangi ma`no berish; 5) gaplarga qo'shimcha ma`no yuklash.

A. 1,3,4 B. 1,2,3,5 C. 1,2,3,4 D. 1,3,4,5

3. Qaysi qatorda vazifadosh ko'makchi otlashgan so'zdan keyin qo'llangan?

A. Insonning fe`l-atvoriga qarab unga baho berishadi.

B. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas.

C. To'ydan keyin nog'ora chalmoq - nodonlar ishi.

D. Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqat yotadi.

4. Qaysi qatordagi gapda vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan?

A. Avval o'yla, keyin so'yla.

B. Bu kitob qo'lga tushgandan keyin bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi.

- C. Ish bilan ovora bo'lib kunning o'tganini ham sezmay qolasan.
- D. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg'oq bo'lmog'i darkor.
5. Faqat vazifadosh ko'makchilar ishtirok etgan qatorni toping.
- A. tomon, haqida, ko'ra
- B. so'ng, singari, bo'ylab
- C. tufayli, avval, to'g'risida
- D. qarab, keyin, ust
6. Vazifadosh ko'makchilar haqidagi qaysi hukm noto'g'ri?
- A. Ular ko'makchi vazifasida kelganida atash ma`nosini yo'qotadi.
- B. Ma`lum so'roqqa javob bo'lmaydi.
- C. O'zi qo'shilgan so'z bilan birgaikda bitta so'roqqa javob bo'ladi.
- D. Mustaqil o'zi gap bo'lagi vazifasini bajaradi.
7. Vazifadosh ko'makchi qatnashmagan qatorni toping.
- A. tufayli
- B. qarab
- C. qoshida
- D. to'g'risida
8. Qaysi hukm noto'g'ri?
- A. bilan ham ko'makchi, ham bog'lovchi
- B. ham, na...,na... ham bog'lovchi, ham yuklama
- C. -u(-yu), -da ham yuklama, ham ko'makchi
- D. balki ham modal so'z, ham bog'lovchi
9. Qaysi gapda yuklama zidlov bog'lovchisi vazifasini bajargan?
- A. Nega endi natijaga baho berishadiyu, sababini tekshirib ko'rishmaydi?
- B. Quyuq saksovulzor duch kelishi bilan kiyikcha o'zini shu panohgohga urdiyu, arang jon saqlab qoldi.
- C. Bir kuni kechasi bir hiyla o'ylab chiqdim-da, erta turgach eski maktab sari jo'nadim.
- D. hammasida biriktiruv bog'lovchisi bo'lib kelgan.

10. Qaysi qatorda jo'nalish kelishigi bilan qo'llanadigan vazifadosh ko'makchi mavjud?

- A. ko'ra, boshqa, yarashà
- B. asosan, muvofiq, keyin
- C. ko'ra, qaramay, muvofiq
- D. ko'ra, o'zga, sari

11. Vazifadosh ko'makchi qo'llangan gapni toping.

- A. Ustida atlas ko'ylak, boshida do'ppisi bor edi.
- B. Usmon Nosir o'z ustida uzoq ishlardi.
- C. Devor usti yomg'irdan iviy boshladi.
- D. Qoziq ustida qor turmas.

12. Vazifadosh ko'makchilar qaysi javobda berilgan?

- A. sayin, sari
- B. keyin, avval
- C. singari, qadar
- D. uchun, bilan

13. Bosh kelishik shaklidagi ismlarga ergashib kela oladigan vazifadosh ko'makchilar qatorini aniqlang.

1) sari; 2) tomon; 3) bilan; 4) bo'ylab; 5) qaramay; 6) sayin; 7) kabi

- A. 2,4,5,6
- B. 1,2,3,4
- C. 1,2,3,4,6,7
- D. 2,4

VAZIFADOSH BOG'LOVCHILAR VA UNING O'QITILISHI
(ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ФОРМЫ СОЮЗОВ И ИХ ОБУЧЕНИЕ)

Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlarini tushuntirishda quyidagi jadvallarga murojaat etiladi:

Teng bog'lovchilar

O'zaro teng munosabatda bo'lgan gap bo'laklari, gaplarni bog'lash

uchun ishlatiladigan bog'lovchilar teng bog'lovchilar hisoblanadi.

1. Biriktiruv bog'lovchilari: va, hamda, bilan (ko'makchi), ham, -u(-yu), -da (yuklama)	<i>Yuklarini aravaga ortdilar va o'zlari piyoda yo'lga chiqdilar. (P.Tursun)</i>
2. Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq, lek, vale	<i>Mahalla ko'karib obod bo'lganicha yo'q, lekin odamlarning ruhi yashardi. (As. Muxtor)</i>
3. Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, yoxud, yoyinki, yo...yo, goh...goh, dam...dam, ba`zan...ba`zan	<i>O'ktam tolga suyanib, dam cholga, dam tegirmonga qarab indamay turaverdi. (Oybek)</i>
4. Inkor bog'lovchisi: na... na	<i>Bu yerda na tom, na deraza bor edi. (Mirmuhsin)</i>

Ergashtiruvchi bog'lovchilar

O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilarga ergashtiruvchi bog'lovchilar deyiladi.

1. Aniqlov bog'lovchilari: ya`ni, -ki (-kim)	<i>"Shu`lafizo" shu`la orttiruvchi, ya`ni kuchli shu`la hosil qiluvchi degani. (A.Rustamiy) Ko`radiki, hosil juda mo'l. (Oybek)</i>
---	---

2. Sabab bog'lovchilari: chunki, shuning uchun, shu bois, shu sababli, shu tufayli	<i>Bu xabar unda hech qanday norozilik tug'dirmadi, chunki ertaroq qaytishga juda orzumand emas edi. (A.Qahhor)</i>
3. Shart bog'lovchilari: agar, basharti, mabodo, garchi	<i>Agar yo'ldan ozib, bir xato qilsam, Kibr paydo qilsam topilur davo. (Shukrullo)</i>
4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: go'yo, go'yoki, xuddi ¹⁰	<i>Tog' etagi juda go'zal edi, go'yo chiroyli gilam to'shalganday.</i>

Bog'lovchilarning ko'makchilar bilan grammatik jihatdan farqlanishi quyidagi qiyosiy misollar asosida tushuntiriladi¹¹:

Ko'makchi	Bog'lovchi
1. Ko'makchigaptuzishdafaolishtiroketadi, ugapdantushibqolsa, fikranglashilmaydi.	1.Bog'lovchitushiribqoldiril saham, gapohangidao'zgarishbo'lsaham, fikranglashilaveradi.
2. Ko'makchi ot, olmosh, otlashgan so'zlardan keyin ishlatiladi.	2.Bog'lovchi barcha mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, fe`l,

¹⁰Bu haqda qarang. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademiklitseyva kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. -Toshkent: "Ilm ziyo". 2015. -B . 399.

¹¹To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T.Ko`rsatilgan manba . -B. 127.

	ravishlardan keyin kelaveradi.
3. Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zning bosh, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarining birida bo'lishini, vazifadosh ko'makchilar esa barcha kelishik qo'shimchalari bilan kelishini ham ko'rish mumkin.	3. Bog'lovchilar kelishik qo'shimchalari olmaydi, o'zi bog'layotgan so'zlarni qaysi kelishikda bo'lishidan qat'i nazar, o'zaro bog'layveradi.

Bog'lovchilar ham xuddi ko'makchilar singari sof va vazifadosh turlarga bo'linadi:

Bog'lovchilarning turlari	
Sof bog'lovchilar:	Vazifadosh bog'lovchilar:
va	bilan
hamda	ham
yo	na... na
yoxud	-mi, -u(-yu), -da
yoki	balki
lekin	
ammo	
biroq	
chunki	

Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar *sof bog'lovchilar* sanaladi: **va, hamda, yo, yoxud, yoki, lekin, ammo, biroq, chunki** kabi.

Biriktiruv bog'lovchilariga **va, hamda** sof bog'lovchilari, **bilan** ko'makchi-bog'lovchisi, **-u (-yu), -da, ham** yuklama-bog'lovchilari mansubdir¹². Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi yordamchilar *vazifadosh bog'lovchilar* sanaladi. Masalan: **bilan** ham ko'makchi, ham bog'lovchi; **ham... ham, na... na** bog'lovchi va yuklama; **-u (-yu), -da** yordamchilari ham yuklama, ham bog'lovchi; **balki** ham bog'lovchi, ham modal so'z vazifasini bajaradi¹³. "... **balki** sof bog'lovchi bo'lolmaydi, bog'lovchi funksiyasini bajarayotgan yuklama sirasidan joy oladi¹⁴". Masalan: *Na so'zlarida ma`no bor, na ishlarida hayo.* (Oybek.) *Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak.* (Maqol) *Bu gap menga yoqmas, balki battar jahlimni chiqarardi* (So'zl.).

Bilan ko'makchisi uyushiq bo'laklarni bog'laganda biriktiruv bog'lovchi (**va**) o'rnida kelishi mumkin: *Yer bilan suv egizak, bir-birisiz yashay olmaydi.*(Gazetadan) *Eshon bilan Kifoyatxon qulay bir joyni topib, ularni kuzatishardi.* (A.Qahhor)

Bilan so'zi o'zaro tobe bog'langan so'zlarni bog'laganda ko'makchi hisoblanadi: *Ukam bilan bordim.*

"Bog'lovchi va yuklama vazifasida kela oladigan **-u (-yu), -da, -mi** yordamchilaridan **-u(-yu), -da** qo'shimchalarining bog'lovchi vazifasini to'lato'kis bajarishi qator manbalarda qayd etilgan, **-mi** qo'shimchasida ham bog'lovchilik xususiyati borligini 1. *Yomg'ir yog'dimi, hamma joy nam bo'ladi.* 2. *Karim keldimi, to'polon boshlanadi tarzidagi gaplar tasdiqlaydi*". "Nisbiy bog'lovchiga mustaqil so'z turkumidan o'sib chiqqan ... **ba`zan, bir, vaqtida, hali, goh, goho** kabi so'zlarning takroriy shakli misol bo'ladi. Chunonchi, 1.

¹² Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -Toshkent: "Ma'naviyat", 2013. -B. 74.

¹³ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: "Fan va texnologiya". 2009. -B. 274-275.

¹⁴ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: "Fan va texnologiya". 2009. -B. 276.

Ba`zan Qoratoyni ishxonasida, ba`zan choyxonada tunab yurdi. (Oybek) 2. *Ikki kundan beri goh savalab, goh shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir hammayoqni ivitib yubordi.* (A.Qahhor) 3. *Vaqtida qor yog'adi, vaqtida yomg'ir.* Bu gaplarda qo'llanilgan *ba`zan, goh, vaqtida* so'zlarining vazifasi bog'lovchiga juda yaqin¹⁵.

Shuningdek, yuklamalarning bog'lovchilashuvi masalasini yoritish masalasiga e'tiborda bo'lish lozim. Ya'ni:

Bog'lovchilarning yuklamalashuida ham tilning ma'lum bir qonun-qoidalari amal qiladi. Shuningdek, hamma bog'lovchilar ham yuklama vazifasida qo'llana olmaydi. Yuklamalashish jarayoniga ko'proq sintaktik bog'lovchilar tortiladi. Sintaktik bog'lovchilar lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan yordamchilardir. Masalan, **va, hamda, -ki** sintaktik bog'lovchilardir, chunki ular polufunksional va polesemik tavsif kasb etadi. Semantik bog'lovchilar esa muayyan ma'noga ega bo'ladi. Ular bir ma'noli sintaktik butunliklar hosil qiladi¹⁶.

Bog'lovchilarning yuklamalashuvi asosan pleonazm yo'li bilan vujudga keladi. Ikki yoki undan ortiq yordamchi so'zlar yonma-yon (pleonastik) qo'llanganda, ulardan biri, odatda, bog'lovchi xarakteridagisi, nutqiy-pragmatik qiymat kasb etadi, natijada so'zning bog'lovchi kategoriyasiga xos grammatik vazifaviy xususiyatlari inkor etiladi. Masalan, *Na ovchiman, va na botirman...* (A.Oripov) birikmasida **va** ning qismlarni vaqt ma'nosi munosabatiga ko'ra bog'lash vazifasi inkor etilgan; qismlarning sintagmatik munosabatidan anglashiluvchi inkor ma'nosi kuchaytirilgan, mantiqan ahamiyatli semantik birlik tusini olgan.

Zidlov bog'lovchilari pleonastik qo'llanganda, ulardan biri (nutqda faol qo'llanadigani) yuklamaga aylanadi: *Uning tomog'ini yig'i bo'g'ib keldi, ammo lekin yig'lashga kuchi yetmadi.* ("Yosh kuch"). Mazkur jumlada **ammo**

¹⁵ Sayfullayeva R. va boshqalar. Ko'rsatilgan manba. -B.275

¹⁶ Bu haqda qarang: Berdialiyev A. O'zbek tili ergash gapli qo'shma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. -Toshkent: Universitet. 1993. -B. 12.

yuklamalashgan bog'lovchidir. ... *Qiyosing chin va yo lofdir...* (A.Oripov) qurilmasida ma'no va vazifasi har xil (biriktiruv va ayiruv) bog'lovchilar pleonastik mavqeda qo'llangan, **va** bog'lovchisi ayiruv ma'nosini kuchaytiruvchi yuklama "qiyofa" sig'a kirgan.

Bog'lovchilar pleonazmi va yuklamalashuv jarayonida teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar ham qatnashadi. Masalan, **va shuning uchun:** *Domla ko'p odamlarning qalbida bundan bir oy burun o'tgan va shuning uchun janozada mahalladan ko'p odam qatnashmadi.* (A.Qahhor) Bu gap sintaktik xarakterda bo'lgani uchun **va** bog'lovchisi qo'shma gap qismlariaro sabab ma'nosining kuchaytirish vazifasidagi yuklamaga aylangan.

Pleonazm hodisasiz ham ba'zi bog'lovchilar yuklamalasha oladi. Masalan. **ammo, lekin, biroq, balki** yordamchilari gap boshida yoki oxirida kelganda ana shunday tavsifda bo'ladi: *Balki u hech qanday temir-tersakka, A'lo vujudini egmaydi, ammo* (A.Oripov); *Ammo Tolibjonni hadeganda uyqu ololmadi.* (S. Ahmad)

Shuningdek, har xil pleonastik mavqelarda qo'llangan **ammo, lekin, biroq, esa; agar, basharti, mabodo, bordi-yu, go'yo, go'yoki, misli, misolibog'**lovchilarida ham yuklamalashuv imkoniyatlari kuzatiladi.

“O'zbek tili o'qitish metodikasi” qo'llanmasida¹⁷ *va, ammo, chunki* kabi yakka; *yo...yo, goh...goh, ba`zan...ba`zan* singari takror qo'llanadigan bog'lovchilar ustida ishlash; gapning uyushiq bo'laklari hamda qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda teng bog'lovchilar (biriktiruv, zidlov, aytruv, inkor) va ergashtiruvchi bog'lovchilar (*chunki, shuning uchun*) ishtirok etgan gaplar hosil qilib, bog'lanish yo'llarini tushuntirish maqsadga muvofiq" ekanligi ta'kidlangan .

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha gaplarni yozuv taxtasiga yozdirib, ularni sodda gaplarga ajratishni topshiradi:

¹⁷To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (O'quv qo'llanma). -Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2006. -B. 128.

1. *Chigit tezda unib chiqdi va yosh g'o'zalar parvarish qilina boshladi.* 2. *Umrzoq ota Ko'ktog' tomonga qaradi, ammo Oyoqiz keladigan yolg'izoyoq yo'lda hech kim ko'rinmadi.* (Sh.Rashidov) 3. *Zokirjon maqto'v qog'ozi bilan taqdirlandi, chunki u barcha fanlardan "5" baho oldi.* 4. *Siz kirdingiz, go'yo xarobaga oftob tushdi.* (S.Abdulla)

Mavzu yuzasidan quyidagi topshiriqlar amalga oshiriladi:

1-TOPSHIRIQ. Quyidagi nazorat savollari asosida mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni yodga oling.

1. Bog'lovchilar gapda qanday grammatik vazifa bajaradi?
2. Qaysi tilshunos olimlarning bog'lovchi so'z turkumi tadqiqiga oid izlanishlari mavjud?
3. Sof bog'lovchilarni ayting va ular ishtirokida gaplar tuzing.
4. Qanday bog'lovchilar vazifadosh bog'lovchilar deyiladi?
5. Vazifadosh bog'lovchilarni ham bog'lovchi, ham o'z vazifasida keltirib gaplar tuzing.
6. **Na...na** yordamchisining bog'lovchi hamda yuklama vazifasida kelishiga misollar keltiring.
7. **Balki** so'zining bog'lovchi vazifasida kelishiga misollar keltiring.

2-TOPSHIRIQ. Tarkibida bog'lovchisi bor gaplarni ko'chiring. Ularning sof yoki vazifadosh bog'lovchi ekanligini ayting.

1. *Mushuk yarmi qizil, yarmi sariq ko'ptokni u yoqdan - bu yoqqa dumalatish bilan ovora edi.* (L.Mahmudov) 2. *Goh jahlg'a minsam-da sal, Ichim to'la mehr, qizim. Goh sal qo'pol, goh sal dag'al Dadajoning kechir, qizim.* (Yahyo Tog'a)
3. *U chiroqni o'chirib sandal chetiga yotdi-yu, ko'nglidagi g'ulg'ula kuchayib ketaverdi.* (O'.Hoshimov) 4. *Boyvachcha yer o'pib, tavba qilibdi va keksa otanasini rozi qilish uchun o'sha zahoti ularning huzuriga shoshilibdi.* (N.Aminov)

3-TOPSHIRIQ. Avval sof bog'lovchili, keyin vazifadosh bog'lovchili gaplarni ko'chiring.


1.- *Tan olaman, tergovchi janoblari, berishadi-yu, lekin nima sababdan bu ishni qilganimni daftaringizga qayd qilib qo'ysangiz.* (X.To'xtaboyev) 2. *Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko'rishmaydi?* (X.To'xtaboyev) 3. *Ayniqsa, uning odob va axloq haqidagi "Turkiy Guliston" asari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.* ("Adabiyot" darsligidan) 4. *Kuyuk saksovulzor duch kelishi bilan kiyikcha o'zini shu panohgohga urdi-yu, arang jon saqlab qoldi.* (S.Ravshanov) 5. *Bir kuni kechasi bir hiyla o'ylab chiqdim-da, erta turgach, eski maktab sari jo'nadim.* (A. Qodiriy) 6. *Oy goh eshik tirqishlaridan mo'ralar, goh bulutlar orasida g'oyib bo'lardi.* (Ch.Aytmatov)

4-TOPSHIRIQ. Sof va vazifadosh bog'lovchilar ishtirokida bog'li matn tuzing. Matnga sarlavha qo'ying. Bog'lovchilarning tagiga chizib, turini ayting.

5-TOPSHIRIQ. Gaplar ichidan **bilan, ham** so'zlarining qaysi o'rinlarda bog'lovchi, qaysi o'rinlarda boshqa yordamchi so'z vazifasida qo'llanganini aniqlang, undagi farqni tushuntirib bering.

1. *Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib, o'n sakkizga qadam bosganida, bo'yi ham onasiga yetayozgan, ammo jussasi onasidan ko'ra to'laroq ko'rinar edi.*
2. *Muloyim kishida insof ham, diyonat ham, e'tiqodga sodiqlik ham, vijdon ham, sadoqat ham - hammasi bo'ladi.*
3. *Ahmad Yassaviy ko'ngil va til birligini qadrlagan.*
4. *Binolar qurildi, biroq tadbirkorlik ishlari qanday olib borilmoqda?*
5. *She`r bilan kuyning hamohangligiga erishmoq zarur.*
6. *Ona ba`zan farzand boshida parvona bo'lardi, ba`zan beshikka bosh qo'yganicha uxlab qolardi.*

6-TOPSHIRIQ. Quyidagi jadvalni to'ldiring.



7-TOPSHIRIQ. Bilan bog'lovchi vazifasida kelgan o'rinlarni aniqlab, gaplarni ko'chiring.

1. *Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirdan yoki tengdoshdan.* (A.Oripov)
2. *Nozimaxon goh mashinkasini, goh tikuv mashinkasini yurgizib allamahalgacha ishlab o'tiribdi.* (X. Sulton)
3. *Matniyoz xotini nima desa shuni qilardi-yu, lekin ich-ichidan unga achinib qo'yardi.* (A. Muxtor)
4. *Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra.* (N. Aminov)

8-TOPSHIRIQ. Balki so'zi bog'lovchi vazifasida kelgan gaplarni daftaringizga yozing.

1. *Bo'rondan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko'paydi.* (Sh.Rashidov)
2. *Xalqni qo'rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir.*
3. *Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi.* (M.Qosimova)
4. *Balki, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.* (O'.Hoshimov)
5. *Inson go'zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi.* (M.Qosimova)

9-TOPSHIRIQ. Ko'chiring. Qaysi gaplarda **na** yordamchi bog'lovchi, qaysi gaplarda yuklama vazifasida kelganligini aniqlang.

1. *Sharifning haqiqat ufurib turgan gaplariga qarshi na Nozima bir narsa deya oldi, na Nabijon.* 2. *Bepoyon dasht bag'riga yashiringan chashmani na Qahramon, na Bahrom topa olmadi.* 3. *Sen na boy erursan va na kambag'al, Yashaysan bir-biring aldab galma-gal.* (A.Oripov) 4. *Hamid yaratmoqchi bo'lgan yangi paxta navi haqida hozircha na institut direktoriga, na do'sti Umidga hech narsa demadi.*

10- TOPSHIRIQ. Rasmda keltirilgan sport turlari haqida matn tayyorlang. Matnda sof va vazifadosh bog'lovchilarni qo'llang.



TEST

1. Qaysi javobda keltirilgan gapda ma`noviy jihatdan bir guruhga mansub sof va vazifadosh bog'lovchi qatnashgan?

- A. Millat tushunchasi hamisha Vatan bilan yonma-yondir, misoli jismu jondir.
- B. Yupanch topdingmi dunyoga kelib, ustoz yo shogirdan yoki tengdoshdan.
- C. O'zi balo tog'ining va ofat bulog'ining boshida o'tirarmish, kunu tun, yoz ham qish.
- D. Ona bilan bola - gul bilan lola.

2. Qaysi javobda vazifadosh zidlov bog'lovchilari keltirilgan?

- A. -u (-yu), -da, ba`zan

- B. -u(-yu), -da, balki
- C.-u (-yu), -da, na...na
- D. -u (-yu), -da, xoh

3. Berilgan gaplarning qaysilarida vazifadosh biriktiruv, qaysilarida vazifadosh zidlov bog'lovchilari qo'llangan?

- 1) U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi.
- 2) U kishi hamma bilan qo'lberib xayrlashdi-da, menga qolganda burilib ketdi.
- 3) Ba`zan hordiq chiqarishga erishadilaru, ba`zilar podalari izidan cho'lga qarab ketadilar.
- 4) Bir zumda havo sovidi-yu, quyuq tuman bosdi.

- A. 1,4 -biriktiruv, 2, 3 - zidlov bog'lovchilari o'rnida
- B. 1,3,4 -biriktiruv, 2-zidlov bog'lovchilari o'rnida
- C. 1,3 - biriktiruv, 2,4 - zidlov bog'lovchilari o'rnida
- D. 1,2 -biriktiruv, 3,4 - zidlov bog'lovchilari o'rnida

4. Qaysi javobda teng bog'lovchilar haqidagi to'g'ri hukmlar ko'rsatilgan?

- 1) *bilan* ko'makchisi uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganda bog'lovchi vazifasini bajaradi; 2) teng bog'lovchilar uyushiq bo'lak va gaplarning mazmuniy munosabatlarini ham ro'yobga chiqaradi; 3) ko'makchi, yuklama, modal so'zlar vazifadosh bog'lovchi vazifasida ham kelishi mumkin; 4) mazmuniy munosabat ifodalashiga ko'ra bog'lovchilar teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi; 5) zidlov bog'lovchilari uyushiq bo'laklarni emas, qo'shma gap qismlarini bog'laydi.

- A. 1,2,3,5 B. 1,2,3,4,5 S. 1,2,3 D. 1,2,3,4

5. Qaysi javobda vazifadosh bog'lovchilardan keyin vergul qo'yilishi mumkin?

- A. -u (-yu), -da, -ku, ya`ni
- B. ammo, lekin, biroq, balki
- C.-u (-yu), -da, balki
- D. -u (-yu), -da

6. Milyon o'zbeklarning umidlari jam.

Milyon bu ovozlar - nomus ham (1) ordir.

Chopdim she`rlarimni qo'ltiq lab men ham (2):

Egasi bor yurtning - ertasi bordir.

She`riy parchada qo'llangan **ham** so'zlari haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

- A. 1-yuklama. 2-bog'lovchi
- B. 1-bog'lovchi, 2-yuklama
- C. 1,2 - yuklama
- D. 1,2 - bog'lovchi

7. Qaysi javobda keltirilgan gapda yuklama-bog'lovchi qo'shma gap tarkibidagi teng munosabatli sodda gaplarni bog'lagan?

- A. Onaizorning xayolida hozir eshik ochiladi-yu, Kimsan kirib keladi.
- B. Farzandlari galma-galdan xivichlarni bir yo'la sindirishga urinishdi, biroq hech biri buning uddasidan chiqqan olmadi.
- C. Havaslarim tashlab ketdilar, Qalbim ila qoldim-ku tanho.
- D. Ilm bir daryo - ichi to'lmish dur-u gavhar bilan.

8. Vazifadosh bog'lovchi berilgan gapni toping.

- A. Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko'rishmaydi.
- B. Xalqni qo'rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir.
- C. Onam bilan men ertalab yo'lga chiqdik.
- D. Barcha gaplarda vazifadosh bog'lovchilar qo'llangan.

9. Qaysi gapda vazifadosh bog'lovchi ishtirok etmagan?

- A. Bulut bo'ldi-da, yomg'ir yog'madi.
- B. Birov kirdi-da, chiqib ketdi.
- C. Yonayotgan shuvoqlar chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi.
- D. Choy qaynatib ichishni-da unutdi.

10. Qaysi so'z turkumlari vazifadosh bog'lovchi bo'lib kela oladi?

- A. ko'makchi, yuklama, modal so'z
- B. ot, ravish, ravishdosh, ko'makchi
- C. ko'makchi, yuklama, ot, undov so'zlar
- D. Boshqa so'z turkumlari bog'lovchi vazifasida kelmaydi

11. Vazifadosh bog'lovchilar berilgan javobni toping.

- A. bilan, ham, -u(-yu), -da, avval
- B. bilan, ham, -u(-yu), -da, na..., na...
- C. bilan, hamda, -u(-yu), -da, biroq
- D. bilan, ham, -u(-yu), va

12. Bog'lovchi-yuklamalar qanday bog'lovchilar guruhiga mansub bo'ladi?

- A. teng bog'lovchilar
- B. ergashtiruvchi bog'lovchilar
- C. shart bog'lovchilari
- D. sabab bog'lovchilari

VAZIFADOSH YUKLAMALAR VA UNING O'QITILISHI

(ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ФОРМЫ ЧАСТИЦ И ИХ ОБУЧЕНИЕ)

So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga *yuklamalar* deyiladi: so'z -yuklamalar (*axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na...na*); qo'shimcha-yuklamalar (*-mi, -chi, -gina, -dir, -u, -yu, -da, -a*).

Yuklamaning gap yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha ma`no berishi haqida talabalar bilimini mustahkamlash maqsadida qiyoslash usulidan foydalanish yaxshi samara beradi¹⁸ :

1. <i>Siz biznikiga kelasiz.</i>	1. <i>Siz biznikiga kelasizmi?</i>
2. <i>Tog'larda yoz oylarida yomg'ir yog'adi.</i>	2. <i>Tog'larda hatto yoz oylarida ham yomg'ir yog'adi.</i>
3. <i>Sen kelishing bilan biz yo'lga tushamiz.</i>	3. <i>Sen kelishing bilanoq biz yo'lga tushamiz.</i>

Yuqorida berilgan gaplar tahlili natijasida o'quvchilar birinchi darak gapga **-mi** yuklamasining qo'shilib, qo'shimcha so'roq ma`nosi hosil qilayotganligi, ikkinchi gapdagi **hatto** yuklamasi kuchaytiruv ma`nosini berishi, uchinchi gapdagi **-oq** yuklamasi ta`kidlash kabi qo'shimcha ma`no kiritayotganligi haqida tushuncha hosil qiladilar.

Yuklamalarning ma`no turlarini o'qitish jarayonida quyidagi jadvalga murojaat etiladi:

No	Yuklamalarning ma`no turlari	Yuklamalar
1.	So'roq va taajjub	-mi, -chi, -a (ya)
2.	Ta`kid va kuchaytiruv	-ku, -u, -yu, -da, -oq(-yoq), axir, ham, hatto, nahotki, g'irt
3.	Ayiruv –chegaralov	-gina (-kina, -qina), faqat
4.	Gumon yuklamasi	-dir

¹⁸To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (O'quv qo'llanma). -Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2006. –B. 129.

5.	O'xshatish-qiyoslash	xuddi, naq, go'yo, go'yoki
6.	Inkor yuklamasi	na...na, hech, sira, aslo

Shuningdek, yuklamalar sof va vazifadosh yuklamalarga tasniflanadi:

Sof yuklamalar	Vazifadosh yuklamalar
-chi, -a(-ya), -ku, -oq(-yoq), axir, hatto, faqat, nahotki, g'irt, xuddi, naq, hech, sira, aslo	ham, -gina (-kina, -qina), yolg'iz, bir, -u (-yu), -da, -mi, na...na, go'yo

"Vazifadosh yuklamalar" mavzusi tushuntirilayotganda yuklamalarning bog'lovchilashuvi masalasiga alohida e'tibor berilishi lozim:

Ma'lumki, yuklamalar modal ma'nolar ifodalab, sintagmatik qamrovidan chetda bo'ladi. Ular ba'zan uyushiq bo'laklarni, qo'shma gap qismlarini bog'lash vazifasi bilan ham ko'zga tashlanadi: *keldi-yu ketdi, keldi va ketdi*. "O'zbek tili grammatikasida **-u(-yu)** yuklamasining bog'lovchi bo'lib kelishi haqida shunday deyilgan: **-u (-yu)** yuklamasi uyushgan bo'laklar orasida kelganda bog'lovchi vazifasini bajaradi hamda u **va** bog'lovchisiga mos keladi¹⁹: *Qiz ertayu kech ... soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi*. (H.G'ulom) *Bu huvillagan dalada Qo'ldosh bobo-yu sharq ufqidagi haroratsiz quyosh barkashidan boshqa hech narsa ko'rinmaydi*. (H.G'ulom) "Ba'zan **va** bog'lovchisi o'rnida **-u(-yu)** yuklamasi ham uyushgan bo'laklar, ayrim gaplar orasida kelib, biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Bu holda ular orasidagi bog'lanish juda mustahkam bo'ladi²⁰". Shuningdek, quyidagicha fikrlar ham uchraydi: Takroriy bog'lovchilarning bir qismi esa, faqat takrorlangandagina bog'lovchi sanaladi, yakka qo'llanganda esa o'zi mansub bo'lgan so'z turkumiga taalluqli bo'ladi²¹. Bu

¹⁹O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Toshkent: Fan, 1975. –B.578.

²⁰ Shoabdurahmonov Sh va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980. –B. 426.

²¹O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Toshkent: Fan, 1975. –B.567.

fikr asosi uchun quyidagi misol keltiriladi: *Rais otam har vaqt shunday deydi: ham o'qi, ham to'qi, o'yinni ertaga qo'y.* (Oybek) Ammo **ham** sanalayotgan bo'laklar yoki gaplar ortidan kelganda yuklamaga aylanadi deb hisoblanadi: *Karomat opam go'zallikda ham, sho'xlikda ham, o'yinga ustalikda ham o'rtoqlaridan qolishmaydi.* (Oybek)

-u, -yu, -da yordamchilari o'rniga **va** bog'lovchisini qo'yish mumkin bo'lsa, bog'lovchi vazifasida, boshqa holatlarda yuklama vazifasida keladi. **-da** yordamchisi yuklama vazifasida kelganda, ko'pincha uning o'rniga **ham**yuklamasini qo'yish mumkin bo'ladi²².

Ham yuklamasi bog'lovchi vazifasida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda qaysi vazifada (yuklama yoki bog'lovchi vazifasida) kelayotganligini farqlash kerak bo'ladi. **Ham** teng bog'lovchi vazifasida kelganda va bog'lovchisi singari uyushgan bo'laklarni bog'laydi: *"...U O'ktam ham O'rmonjonga qarab..."*²³ Bog'lovchilashish layoqati faol yuklamalarga **-u, -yu, -da, -na..., na...** yordamchilari kiradi, ular uyushiq bo'laklarni va bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladi: *G'ayrat o'zi bitta so'z-u, Mazmuni keng olamdan.* (Z.Komilov); *Vasila Nazarovna Dilfuzani ko'r-di-yu, beixtiyor o'z qizining qilmishi yana yodiga tushdi.* (O'.Hoshimov)

Ikki o'zaro teng munosabatga kirishgan so'zlarni bog'lab, **va** bog'lovchisi bilan almashtirish mumkin bo'lsa, **ham** bog'lovchi vazifasida qo'llangan bo'ladi. **Ham** yordamchisi qo'llanilgan jumla tarkibiga **hatto** yordamchisini ham qo'llash mumkin bo'lsa, **ham** yordamchisi yuklama vazifasida, ya'ni o'z vazifasida qo'llanilgan bo'ladi. Solishtiring: *Soli ham Karim keldi. Hatto Karim ham keldi.*

Маълумки, **na... na** yordamchisi teng bog'lovchining bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelingan. Tilshunos G'.Abdurahmonov esa uni inkor bog'lovchi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'laklarga

²²Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -Toshkent: "Ma'naviyat". 2013. -B. 88.

²³O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. -Toshkent: Fan, 1975. -B..568-569.

inkor ma`nosini berib, ularni bog'laydi: *Na so'zlarida ma`no bor, na ishlarida hayo.* (Oybek)"²⁴.

Шунигдек, "**Go'yo** yordamchisi mazmunidan o'xshatish yoki chog'ishtirish ma`nosi anglashilgan sodda va qo'shma gap tarkibida ishtirok etishi, sodda gapda ko'proq yuklamaga yaqin tugiши таъкидланади: *Tursunoy go'yo qalbi bilan ashulaga jo'r bo'lar edi.*"²⁵

Go'yo yordamchisi qo'shma gapda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositaning biri sifatida xizmat qiladi, ya`ni qo'shma gapda sodda gapdagi vazifasidan farqli o'laroq, faqat yuklamagina emas, balki yuklama bog'lovchi sanaladi: *Ertaga nikoh bo'ladi, go'yo men uning xotini.* (Oybek) *Shunday baqirdiki, go'yo butun xona larzaga kelgandek bo'ldi.* (A.Qahhor)

-mi, -chi, -ku, shekilli yordamchilari bog'lovchilashish layoqati sust yuklamalarga kiradi: *Ona yuragi sezgir emasmi, u Olimjonning kayfiyatini sezib yurardi.* (Z. Do'stmatov); *Ayt-chi, ozod gulshaning qayer?*

Aytdimi, qiladi. Qo'ydi-da, chiqdi gaplarida ham **-mi, -da** qo'shimcha yuklamalarning bog'lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin.

Aytdimi, qiladi. Qo'ydi-da, chiqdi gaplarida ham **-mi, -da** yuklamalarining bog'lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin .

Shuningdek, **faqat** so'zi sof yuklama bo'lib, uning o'rnida **yolg'iz** so'zini ham qo'llash mumkin. **Yolg'iz** sifat so'z turkumiga oid bu so'z vazifadosh yuklama hisoblanadi. "**-gina (-kina, -qina)** vazifadosh yuklamalardir"²⁶.

“Yuklamalar bog'lovchi vazifasida kelganda ham o'zining yuklamalik xususiyatini yo'qotmaydi. Ularning bog'lanayotgan birliklar orasidagi o'ni baribir bog'lovchilardan ko'ra yuklamaga ko'proq yaqin keladi. Ularning olib tashlanishi birliklarning sochilib ketishiga olib kelmaydi. Bog'lanish zidligi susayishi mumkin, ammo bu ham yuklamalarga xos bo'ladigan kuchaytiruv-

²⁴Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: "Fan va texnologiya". 2009. –B. 277.

²⁵Shu joyda.

²⁶Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -Toshkent: "Ma`naviyat". 2013. -B. 91.

ta`kid ma`nosining yo`qolishi bilan ko`proq bog`liq, bizningcha, konstruktiv omillar bilan emas. Qiyoslang:

1. *Mabodo xizmat qilmoqchi bo'lsangiz, ish beramiz (H.G'ulom) // Xizmat qilmoqchi bo'lsangiz, ish beramiz.*

2. *Basharti bular katta bo'lsa, har biri dadasining o'rnini bosadi. (H.G'ulom) // Bular katta bo'lsa, har biri dadasining o'rnini bosadi²⁷.*"

1-TOPSHIRIQ. Quyidagi nazorat savollari asosida mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni yodga oling.

1. Yuklamalar qanday morfologik belgilarga ega?
2. Yuklamalar gapda qanday vazifa bajaradi?
3. Qaysi tilshunos olimlarning yuklamalar tadqiqiga oid izlanishlari mavjud?
4. O'zbek tilidagi yuklamalar ma`no jihatdan qanday turlarga bo'lib o'rganiladi?
5. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra qanday tasniflanadi?
6. Qaysi yuklamalar bog'lovchi vazifasida qo'llana oladi?
7. Yuklamalarning presuppozitsiyaga ishorasi deganda nimani tushunasiz?

2-TOPSHIRIQ. Berilgan gaplarda **-u (-yu)**, **-da** yordamchilarining qaysi o'rinda bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelayotganini aniqlang.

1. *Qiz erta-yu kech soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi. (H.G'ulom) 2. Majlis ertaga qoldirilmaydi-yu. 3. Nosir oxun eski bo'lsa-da, ozoda libosda edi. (S.Abdullo) 4. Choy qaynatib ichishni-da unutdi. (Oybek) 5. Birrov kirdi-da, chiqib ketdi. (Oybek)*

3-TOPSHIRIQ. Gaplardagi **na...,na...** yordamchilarining bog'lovchilik va yuklamalik xususiyatlarini aniqlang.

1. Bu yerda na ofat, na kulfat, na g'am. (G'.G'ulom) 2. Na uyda topolmayman, na ishda. (S.Ahmad) 3. Hech kim bilan gaplashmaydi, ginasi bor hammadan, na yalinish kor qiladi, na nasihat, tasalli... (U.) 4. Na uning shohidi bor-u, na uning dalili bor. (M.Ibr.) 5. Yo'q, na otasidan, na akasidan darak yo'q. (O'.Umarbekov) 6. ... Otasida na eskicha, na yangicha ilm bor. (T.Malik)

²⁷ Isaqov Z. Yuklamalar va bog'lovchilarning o'zaro aloqasi // O'TA. 2006, 3-son. –B. 78-79.

4- TOPSHIRIQ. Yuklamali gaplarni yozing.

1.U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. (O'.Hoshimov) 2. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon! (Sh.Xolmirzayev) 3.Yoshgina bir qiz keng atlas ko'ylagini hilpiratib, sahnaning o'rtasiga keldi-da, nimanidir e`lon qildi. (O'.Umarbekov) 4. Na martaba, na churq etgan ovoz eshitilmadi. (Ibrohim Rahim)

5-TOPSHIRIQ. Quyidagi doiralar ichini zarur yuklama ma'no turlari bo'yicha to'ldiring.



6-TOPSHIRIQ. Berilgan matnlar tarkibidagi gaplarga o'zingiz yuklamalar qo'ying. Ularning gapdagi o'rnini va vazifasini tushuntiring. Uslubiy jihatdan qanday qo'shimcha ma'no berayotganligiga diqqat qiling.

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT

UNIVERSITETI

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1955-yilning 15-sentabrida tashkil topgan. Yarim asrdan ortiq vaqt ichida u minglab yuqori malakali jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorladi.

Universitet binosi Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi Sportchilar ko'chasida joylashgan. Universitetda beshtta fakultet bor: sport o'yinlari, yakkakurash sport turlari, ko'pkurash sport turlari, sportni boshqarish va kasbiy fanlar fakultetlari. 18 ta kafedrada tajribali professorlar, dotsentlar va o'qituvchilar ishlaydilar. Ular talabalarga bilim beradilar va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradilar. Universitet qoshida futbol stadioni, manej, voleybol va basketbol maydonchalari, bir necha suv havzasi, kurash, og'ir atletika, boks va qilichbozlik zallari mavjud. Amaliy mashg'ulotlar ana shu maydonchalar va zallarda o'tadi.

Universitetimiz kutubxonasi binoning ikkinchi qavatida. Bu yerda hamma fanlarga oid kitoblar, gazeta va jurnallar bor. Darsdan keyin talabalar ko'pincha kutubxonaga kelishadi. Kutubxonachilar kerakli kitoblarni tez topib beradilar, shundan so'ng, talabalar katta qiroatxonaga kirishadi. Shu yerda seminarlarga tayyorlanadilar, konspektlar yozadilar. Universitet kutubxonasida asosan sportga oid jurnallar, kitoblar bor.

Universitetoshxonasi alohida katta binoda.

Viloyatlik qizlar va yigitlar talabalar turar joylaridagi zamonaviy shart-sharoitlarga ega qulay xonalarda yashaydilar.

XOSIYAT BUVI

Xosiyat buvi nevarasini bog'chadan olib keldi, o'zini behol sezdi. Atrofida nimalarnidir javrayotgan bolaning so'zlari qulog'iga kirmay, ko'z oldi xiralashib, tizzalari titradi, xontaxta chekkasiga cho'kkalab, hushidan ketdi... Bir zamon ko'zini ochsa kasalxonada yotar, yonida o'g'li, kelini termulib o'tirishardi. U bolalariga bazo'r qarab qo'ydi, ko'zlarini yumdi.

Bemorga tikilib o'tirganlarning ko'nglidagi vahima o'rnini allaqanday ilinj egallay boshladi. Xosiyat buvining o'g'li «Hayriyat!» deb chuqur nafas oldi,

xotiniga nimalardir pichirlab o'rnidan turdi. Kampir o'g'lining qo'zg'alganini sezdi, lekin ko'zini ochishga quvvati bo'lmadi, yuragi o'g'lining yo'lakdan uzoqlashayotgan qadam tovushiday duk-duk ura boshladi. «Otasi ham xuddi shunaqa tez-tez yurardi», xayolidan o'tkazdi u.

Bola-chaqalarining yelib-yugurib qolganidan Xosiyat buvi ahvoli ancha og'ir ekanligani tushundi. Qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar serqatnov bo'lib qolishdi. Gohida o'g'li, asosan, kelini boshida navbatchilik qilishardi.

Xosiyat buvining ikki singlisi bor. Kichigi shanba kuni keldi. U uyida ustalar ishlayotgani uchun tez-tez kelolmayotganidan o'kingan singlisini ko'rib o'sha kuni kech ketdi. Ertasiga yana keldi.

Xosiyat buvining o'g'li xolasining bunchalik mehri tovlanib qolganidan quvonib ketdi.

7-TOPSHIRIQ. *-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -ham, -u (-yu) -da, -oq, -yoq, -ki (-kim), axir, hatto, nahotki, -gina (-kina, -qina), faqat, naq, na* yuklamalari ishtirokida gaplar tuzing, ularni imlo qoidalariga rioya qilib yozing.

8-TOPSHIRIQ. Yashirin axborot (presuppozitsiya)ga ishora qiluvchi yuklamalarni aniqlang. Gapda yashirin tarzda ifodalanayotgan axborotni ko'rsating.

Namuna. 1. Faqatgina bir kuch bordir. (A.Oripov) - Boshqa narsasi yo'q.
2. O'rtada sen uchun akang bor xolos. (T.Malik) - Sen uchun boshqa hech kim yo'q.

1. Faqatgina bir kuch bordir. (A.Oripov) 2. O'rtada sen uchun akang bor xolos. (T.Malik) 3. Bu erda ham tinchlik yo'q. (G'.G'ulom) 4. He, telpak ham yo'q-ku. (O'.Hoshimov) 5. Taomda tag'in go'sht yo'q bo'ldi! (T.Murod) 6. Faqatgina taxtu toj yo'q. (E.Vohidov) 6. Yana bitta o'g'lim bor. (O'.Hoshimov) 7. Unda ham bor. (So'zl.) 8. Ha, mana tag'in bir qutisi bor ekan. (O'.Hoshimov)

9- TOPSHIRIQ. Yuklamalar ishtirokida rasmga oid matn tayyorlang. Matnda qo'llangan yuklamalarning ma'no turini ajratib yozing.



UYGA VAZIFA.

1-TOPSHIRIQ. *"Seni hech kimga bermaymiz, O'zбекистон!"* mavzusida matn tuzing. Unda **-u (-yu), -da, na..., na...** yordamchilari ham yuklama, ham bog'lovchi vazifasida kelsin.

2-TOPSHIRIQ. *"O'zbek xalq maqollari"*dan vazifadosh yuklama ishtirok etgan 10 ta maqol toping va ularni izohlang.

3-TOPSHIRIQ. O'.Hoshimov asarlaridan yashirin axborot (presuppozitsiya)ga ishora qiluvchi yuklamalar ishtirok etgan gaplar toping.

4-TOPSHIRIQ. Ilmiy manbalar asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. Yuklamali sintaktik o'ramlarning mavjudlikni bildiruvchi presuppozitsiya ifodalashi deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan tushuntiring.
2. Yuklamali sintaktik o'ramlarning yo'qlikni bildiruvchi presuppozitsiya ifodalashi deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan tushuntiring.

"HA YOKI YO'Q?" O'YIN MASHG'ULOTI

"Yordamchi so'zlar" mavzusi yuzasidan takrorlash mashg'ulotini o'tishda **"Ha yoki yo'q?"** o'yin-mashg'ulotini tashkil etish mumkin. Quyida bu haqda fikr yuritamiz:

"**Ha yoki yo'q?**" o'yin-mashg'ulotida quyidagi o'quv materiallaridan foydalanish ko'zda tutiladi:

1. Guruh nomlari yozilgan plakat.
2. Savolnomalar.
3. Test ishlanmasi.

"**Ha yoki yo'q?**" o'yin-mashg'uloti quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

1- bosqich: O'quvchilar 2 guruhga ajratiladi. Bellashuv mana shu ikki guruh o'rtasida o'tkaziladi.

2- bosqich: Savolnomalarga javob berish.

Savolnomalar o'qituvchi tomonidan oldindan tuziladi.

Savollar guruh a`zolariga ketma-ket tartibda beriladi. O'qituvchi bergan savollarga guruh a`zosi o'ylab ko'rib "**Ha**" yoki "**Yo'q**" tarzida javob beradi.

Guruhlarga alohida-alohida savollar beriladi. Berilgan har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi. Noto'g'ri javobga ball qo'yilmaydi.

"**Yordamchi so'zlar**" mavzusi yuzasidan quyidagi savollar yordamida mavzuni takrorlash mumkin:

1. *Begim bilan birga bu yerlarga kelgan el-ulusning qizlari esa qadimdan o'tliq yurib o'rganganlar.* Ushbu gapda ko'makchi so'z turkumiga mansub so'z bormi?
2. Yordamchi so'zlar gapda sintaktik vazifa bajaradimi?
3. Ko'makchilar qo'shib yoziladimi?
4. Teng bog'lovchilarga *ammo, lekin, biroq* yordamchilari kiradimi?
5. Ko'makchilar bog'lovchilar kabi so'zlarni boshqara oladimi?
6. Ko'makchilar gapda barcha kelishikdagi so'zlarni boshqara oladimi?
7. Ko'makchilar gap tarkibida payt, sabab, vosita, makon ma`nolarini hosil qila oladimi?
8. Ko'makchi turkumiga mansub so'zlar vazifasiga ko'ra farqlanadimi?

9. *Goh, ba`zan, yo, yoki* yordamchilari yuklamami?
10. *Faqat, axir, ham* yordamchilari bog'lovchimi?
11. Bog'lovchilarga vazifadosh bo'lgan yordamchi so'zlar bormi?
12. O'zbek tilida hamma yuklamalar chiziqcha bilan yoziladimi?
13. Yuklamalar bog'lovchi vazifasida qo'llana oladimi?
14. Yuklamalar gapda sintaktik vazifa bajaradimi?
15. O'zbek tilidagi yuklamalar ma`no jihatdan turlarga bo'lib o'rganiladimi?

3-bosqich: Test yechish.

"Yordamchi so'zlar" mavzusi yuzasidan tuzilgan test og'zaki bajariladi. U har bir guruhga 10 tadan test o'qiydi. Test yechishda eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib sanaladi. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi. Noto'g'ri javobga ball qo'yilmaydi.

"Yordamchi so'zlar" mavzusi yuzasidan quyidagi test namunasini tavsiya etamiz.

TEST

1. Qaysi javobda kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari to'g'ri ko'rsatilgan?
 - 1) -gina; 2) hatto; 3) ham; 4) -ku; 5) nahot; 6) atigi; 7) -yu; 8) g'irt.
 - A. 2,3,4,6,7
 - B. 2,3,4,5,7,8
 - C. 1,2,3,4,5,7,8
 - D. 2,3,4,5,6,7
2. -u(-yu) yuklamasi zidlov bog'lovchisi vazifasini bajarmagan gapni toping.
 - A. Tilimning uchida turibdi-yu, aytolmayapman.
 - B. Gap ko'p-u, ko'mir oz.
 - C. Yuksak qoyalardan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildiyu ketdi.
 - D. Osh qilish kerak ediyu, fursatlari yo'q ekan.
3. Qaysi gapda yuklama bor?

- A. Qiz erta-yu kech soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi.
- B. Nosir oxun eski bo'lsa-da, ozoda libosda edi.
- C. Birrov kirdi-da, chiqib ketdi.
- D. U anchadan keyin o'ziga keldiyu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi.
4. na..., na... inkor yuklamasi haqidagi qaysi hukm to'g'ri?
- A. na..., na... inkor yuklamasi qatnashgan gapning kesimi tasdiq shaklda bo'ladi.
- B. na...,na... inkor yuklamasi qatnashgan gapning kesimi inkor shaklda bo'ladi.
- C. na..., na... faqat bog'lovchi bo'ladi, yuklama bo'lolmaydi.
- D. na..., na... inkor yuklamasi qatnashgan gapning kesimi tasdiq yoki inkor shaklida bo'lishi mumkin.
5. Agar **-da** yordamchisi yuklama vazifasida kelsa, ko'pincha uning o'rniga qaysi yuklamani qo'yish mumkin?
- A. lekin
- B. faqat
- C. hamda
- D. ham
6. Qaysi javobda uchta yuklama qatnashmagan gap ko'rsatilgan?
- 1.Ulardan faqat birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos.
2. Qizning nihoyatda ta`sirlanib gapirgan fikrlariga Feruza ham bir nima deya olmadi-ya.
3. Xullas, hammasi yaxshi ketayotgan ediyu, to'satdan ikkovlari ham shaharga, o'z uyiga qaytish fikriga tushib qolsa bo'ladimi?
4. Nahot, meni ham shu gapga ishonmadi deb o'ylaysiz-a? .
- A. berilgan gaplarda uchtadan yuklama qatnashgan
- B. 2,3
- C. 1
- D. 2,3,4

7. -u(-yu), -da yordamchilari biriktiruv bog'lovchisi vazifasini bajarganida qanday hollarda ulardan keyin vergul qo'yilmaydi?

- A. sodda gaplarni bog'laganda
- B. uyushiq bo'laklarni bog'laganda
- C. har doim vergul qo'yiladi
- D. hech qachon vergul qo'yilmaydi

8. **-da** yordamchisi qaysi vazifada kelganida ko'pincha uning o'rniga ham yuklamasini qo'yish mumkin bo'ladi?

- A. biriktiruv bog'lovchisi vazifasida kelganda
- B. ko'makchi vazifasida kelganida
- C. zidlov bog'lovchisi vazifasida kelganida
- D. ko'makchi vazifasida kelganida

9. Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra.

Ushbu gapda yordamchi so'zlarning qanday turlari qatnashgan?

- A. ko'makchi, bog'lovchi
- B. ko'makchi, yuklama
- C. ko'makchi, bog'lovchi, yuklama
- D. yuklama, bog'lovchi

10. Yuklamalarning qaysi biri bog'lovchi vazifasida kelganida takror holda qo'llaniladi?

- A. ham
- B. -u(-yu)
- C. -da
- D. hammasi

11. Bepoyon dasht bag'riga yashiringan chashmani na Qahramon, na Bahrom topa olmadi. Ushbu gapda **na** yordamchisi qaysi vazifada kelgan?

- A. bog'lovchi
- B. yuklama
- C. **na...., na...** so'zi bu gapda so'roq olmoshi bo'lib kelgan
- D. ko'makchi

12. Qaysi gapda yuklama bor?

A. Choy qaynatib ichishni-da unutdi.

B. Na uyda topolaman, na ishda.

C. Na qo'shiq, na kulgu, na churq etgan ovoz eshitilmadi.

D. hammasida yuklama qatnashgan

13. U chaqqon harakat qilarkan, a`zoyi badani terlab ketgan, faqat buni o'zi payqamas, hatto bir so'zni takrorlardi: "menga desa otib yubormaydimi?".Gapda nechta yuklama qatnashgan?

A. 2 ta B. 3 ta C. 4 ta D. 5 ta

14. Qaysi gapda ikkita yuklama qatnashmagan?

A. -Zo'r-ku, qog'ozmasmi? - dedi u hammadan keyin boychechakni qo'lga olib.

B. Yurtimiz yaqin kunlarda bundan-da go'zalroq, bundan-da farovonroq bo'lishiga ishonaman.

C. Xullas, hammasi ko'ngildagidek borayotgan edi-yu, to'satdan ikkovlari ham shaharga, o'z uylariga qaytish fikriga tushib qolishdi.

D. Hammasida ikkita yuklama qatnashgan.

XULOSA

Mazkur "Yordamchi so'zlar va uning o'qitilishi" nomli uslubiy qo'llanmada, asosan, vazifadosh ko'makchilar, vazifadosh bog'lovchilar,

vazifadosh yuklamalarning o'qitilishi masalasi yoritilgan bo'lib, talabalarning o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin ifodalay olishi, mustaqil fikr bildirishi, bilimli, yuksak salohiyatli, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardar bo'lishlari uchun zamin yaratilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanmada yordamchi so'zlarning o'qitilishi masalasini yoritish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zbek tilida boshqa so'z turkumlari (ot, fe'l, ravish)dan bo'lgan, lekin ko'pincha ko'makchi vazifasida qo'llanadigan vazifadosh ko'makchilar ham bo'lib, ular sof ko'makchilardan hamda ot, fe'l, ravishdan morfologik jihatdan farqlanadi. Vazifadosh ko'makchilar o'rganilayotganda ot, olmosh, fe'l, ravish so'z turkumlari yuzasidan olingan nazariy ma'lumotlarga murojaat etiladi.

"Vazifadosh yuklamalar" mavzusini o'tishda yuklamalarning bog'lovchilashuvi masalasiga e'tibor beriladi. -u(-yu), -da, ham,...ham, -na..., na... birliklarining ham yuklama, ham bog'lovchi vazifasini bajarishi qiyosiy misollar asosida tushuntiriladi.

Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi vazifadosh bog'lovchilar (bilan, ham... ham, na... na ; -u (-yu), -da ; balki) ni o'qitishda vazifadosh ko'makchi, vazifadosh yuklamalarga bog'lab o'rganiladi.

Qo'llanma talabalarning o'zbek tili mashg'ulotlarida orqali erkin muloqotga kirishish va ish yuritish malakasini egallashda, til manbalari va vositalari, ixtisoslik leksikasini nutqda qo'llay bilish uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirishi; muloqot orqali milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishi, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash kabi bugungi kunning dolzarb vazifalarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shunga ko'ra, dars jarayonlarida taqdim etilgan muloqotni faollashtiruvchi mashqlar talabalarning lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlarini, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, leksik-grammatik va yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashda asosiy vosita sifatida qo'llash mumkin. "O'zbek

tili" fanidan rejalashtiriladigan amaliy mashg'ulotlar faqat talabalarning amaliy bilimlarini nazorat qilish vositasi bo'lib qolmay, ayni vaqtda ularning bilim doirasini kengaytirish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish, fikrni mustaqil bayon eta olish malakasini shakllantirish omili hamdir.

Talabalarning milliy ma'naviyatni egallashga yo'naltirilgan topshiriqlar o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan qimmatli adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashish o'rganishni ko'zda tutadi.

Uslubiy qo'llanma "O'zbek tili" fanini o'qitish bo'yicha ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2020 yil, 21 oktabr.
2. Shavkat Mirziyoyev. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019 yil, 21 oktabr.
3. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. T. O'zbekiston NMIU, 2017. 48 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. –Toshkent.: 1996, 20-30 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida». (Toshkent sh. 1993-yil, 12-sentyabr) «Toshkent oqshomi» gazetasi. 1993 yil, 12-oktabr
6. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi qarori: «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida», «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi» (Vazirlar Mahkamasining 1995 yil, 24-avgustdagi 339-sonli qarori.).
7. Boltayeva I.T., Айходжаева М.С. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. "Lesson Press" .T., 2020-yil, 250 b.
8. Boltayeva I.T. "Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati". T. "Lesson Press", 2020-yil, 155 b.
9. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1996.
- Abduraimova M. Ona tili ta'limida yangi pedagogik texnologiya. -Toshkent. 2001.
10. Berdiyev H. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'makchilar: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. -Samarqand, 1949.
11. Burxanov Z. O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifdosh kelishiklar pragmatikasi (presuppozitsion aspekt): Filol. fan. nom. ...dis. avtoref. -Toshkent, 2008. - 26 b.

12. Fuzailov S. Ko'makchi va ko'makchi otlar haqida ba`zi mulohazalar: O'zbek tilshunosliginnig aktual masalalari // Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent, 1988.
13. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent: "Ilm ziyo", 2015.
14. Кононов А.Н. Послелогои в современном узбекском литературном языке. –Ташкент, 1951.
15. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
16. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -Toshkent: "Ma`naviyat". 2013.
17. Mavlonov H., Uluqov N., Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. –Toshkent: Falsafa va huquq institute nashriyoti, 2007.
18. Ne`matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tilining struktural sintaksisi asoslari. -Toshkent: Universitet, 1999.
19. Ne`matov H. va boshqalar. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari. – Toshkent, 1993.
20. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
21. Pardayev A. Hozirgi o'zbek tilida ko'makchilarning funksional-stilistik xususiyatlari: Filol. fan. nom. ...dis. avtoref. -Samarqand, 2005. - 25 b.
22. Qo'ng'urov R., Qurbonov T. Ko'makchilar sinonimiyasiga doir // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari // Ilmiy maqolalar to'plami. - Samarqand. SamDU, 1984.
23. Qurbonov T., Ernazarov N. Yordamchi so'zlar stilistikasiga doir // O'zbek tili grammatik qurilishi masalalari// Ilmiy maqolalar to'plami. - Samarqand: SamDU, 1984.
24. Rustamov T. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'makchilar. - Toshkent: Fan, 1965.
- Rustamov T. Sof ko'makchilar. - Toshkent: Fan, 1991.

25. Rasulov I. O'zbek tilida yordamchi so'zlarning semantik- grammatik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1983.
26. Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. fan. nom. ...dis. avtoref. -Samarqand, 1994. - 23 b.
27. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -Toshkent: "Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2013.
28. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent:"Fan va texnologiya.2009.
- 29.To'xliyev B., ShamsiyevaM., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma). -Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2006.
- 30.Turdiboyev T. O'zbek tilida yordamchi so'zlar konversiyasi: Filol. fan. nom. ...dis. avtoref. -Toshkent, 1996. - 21 b.
- 31.O'rinboyeva D. O'zbek so'zlashuv nutqida o'zgarmaydigan so'zlar (yordamchi so'zlar): Filol. fan. nom.... dis.avtoref. -Samarqand, 1994.
- 32.O'zbek tili grammatikasi. T.2. -Toshkent: Fan, 1976.
- 33.G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'qituvchi, 1987.
- 34.G'ulomovA. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. –Toshkent. 1992.
- 35.G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili Она тили таълими мазмуни. –Toshkent: O'qituvchi, 1995.
- 36.Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida yordamchi so'zlar: Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar. -Toshkent. O'zFA, 1953.
- 37.Shoabdurahmonov Sh., M. Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1 - qism. -Toshkent: O'qituvchi, 1980.

MUNDARIJA

SO`ZBOSHI.....	3
YORDAMCHI SO'ZLARNING O'QITILISHI.....	6
VAZIFADOSH KO'MAKCHILAR VA UNING O'QITILISHI.....	19
VAZIFADOSH BOG'LOVCHILAR VA UNING O'QITILISHI.....	42
VAZIFADOSH YUKLAMALAR VA UNING O'QITILISHI.....	54
XULOSA.....	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	70

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВСТУПИТЕЛЬНАЯ ЧАСТЬ.....	3
ОБУЧЕНИЕ СЛУЖЕБНЫХ ЧАСТЕЙ РЕЧИ	6
ФУНКЦИОНАЛНЬЕ ФОРМЫ ПОСЛЕЛОГОВ И ИХ ОБУЧЕНИЕ	19
ФУНКЦИОНАЛНЬЕ ФОРМЫ СОЮЗОВ И ИХ ОБУЧЕНИЕ	42
ФУНКЦИОНАЛНЬЕ ФОРМЫ ЧАСТИЦ И ИХ ОБУЧЕНИЕ.....	54
ЗАКЛЮЧЕНИЕ.....	68
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА.....	70